

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI

SAMARQAND QISHLOQ XO‘JALIK INSTITUTI

Veterinariya fakulteti

5640100 - Veterinariya ta’lim yo‘nalishi

IBRAGIMOV OLIM RAVSHAN O‘G‘LI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**“SIGIRLARDA YO‘LDOSHNI USHLANIB QOLISHI
SABABLARI VA UNING ASORATLARI”**

Ilmiy rahbar, dotsent _____ B.M.Eshburiyev

**Veterinariya fakulteti dekani,
dotsent _____ H.B.Niyozov**

«____» _____ 2016 yil

**Hayvonlarning yuqumsiz kasalliklari,
akusherlik va ginekologiya kafedrası
mudiri, dotsent**

_____ B.M.Eshburiyev

«____» _____ 2016 yil

SAMARQAND – 2016

M U N D A R I J A

I.	KIRISH.....	
I.1.	Mavzuning dolzarbligi	
I.2.	Ishning maqsadi va vazifalar	
II.	ADABIYOT MA'LUMOTLARINING SHARHI	
II.1.	Sigirlarda yo'ldoshni ushlanib qolishining sabablari, patogenezi klinikasi va oqibatlari.....	
II.2.	Sigirlarda yo'ldoshni ushlanib qolishi va uning oqibatida kuzatiladigan endometritlarni davolash va oldini olish.....	
III.	XUSUSIY TADQIQOTLAR	
III.1.	Xo'jalikning iqtisodiy tavsifi	
III.2.	Tadqiqotlar obekti va uslublari	
III.3.	Sigirlarda yo'ldoshni ushlanib qolishini va uning oqibatida kuzatiladigan kasalliklarni davolash tajribalarining natijalari.....	
III.3.1.	Tajribadagi sigirlarni oziqlantirish va saqlash sharoitlarining tahlili.	
III.3.2.	Tajribadagi sigirlarni klinik-gematologik va ginekologik tekshirish natijalari.....	
III.3.3.	Ishning iqtisodiy samaradorligi	
IV.	VETERINARIYA TADBIRLARINI TASHKIL ETISH VA IQTISODI	
V.	HAYOT FAOLIYATI HAVFSIZLIGI	
VI	FUQAROLAR MUDOFASI	
VII	XULOSALAR	
VIII	AMALIY TAVSIYALAR	
IX	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	

KIRISH

Aholining chorvachilik masulotlariga bo'lgan talabini yanada yaxshiroq qondirish Davlatimiz agrar siyosatining asosiy jabhalaridan biri hisoblanadi. Respublikamiz Prezidentining qator farmonlari va vazirlar mahkamasining qarorlarida aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish iqtisodiy hamda siyosiy masala deb ta'kidlanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 21 – apreldagi «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori Respublikamizda chorvachilikni xususiy mulkchilik asosida jadal rivojlantirish va rentabelli sohalardan biriga aylantirish, aholi turmush darajasini oshirish, ichki bozorni go'sht, sut kabi hayotiy muhim oziq-ovqat maxsulotlari bilan barqaror to'ldirishning muhim omili sifatida rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida *“Hurmatli majlis ishtirokchilari! Vazirlar Mahkamasining bugungi kengaytirilgan majlisi kun tartibiga kiritilgan asosiy masala – O'zbekistonning o'tgan 2015-yildagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish yakunlarini muhokama qilish va 2016-yil uchun taraqqiyot yo'limizning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini aniqlab olishdan iborat. O'tgan 2015-yil bizning bosh maqsadimiz bo'lmish asosiy vazifa – odamlarimizning munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlash va rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan o'rin yegallash bo'yicha avvalo muhim islohotlarni amalga oshirish yo'lida katta qadam bo'ldi, deb aytishga to'liq asoslarimiz bor.*

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida ham chuqur tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Murakkab ob-havo sharoitiga qaramasdan, fermer va dehqonlarimizning fidokorona mehnati va omilkorligi tufayli o'tgan yili mo'l hosil yetishtirildi – 7 million 500 ming tonnadan ziyod g'alla, 3 million 350 ming

tonnadan ortiq paxta xirmoni barpo etildi. Ta'kidlash kerakki, bunday mo'l hosil asosan qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish, seleksiya ishlarini yaxshilash, g'oz va boshqaliq don yekinlarining rayonlashtirilgan navlarini joriy qilish, zamonaviy agrotexnologiyalarni o'zlashtirish yevaziga ta'minlandi. Mamlakatimizda bug'doydan gektaridan o'rtacha 55 sentner hosil olingani, ayrim tumanlarda bu ko'rsatkich 60-77 sentnerni tashkil yetgani, harch shubhasiz, fermerlarimizning ulkan yutug'idir. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligining mevasabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik kabi tarmoqlari ham jadal sur'atlarda rivojlandi. O'tgan yili 12 million 592 ming tonna sabzavot va kartoshka, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari, 1 million 556 ming tonna uzum, 2 million 731 ming tonna meva yetishtirildi. Qishloq xo'jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash, yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan yili qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan 230 ta korxona, 77 ming 800 tonna sig'imga yega bo'lgan 114 ta yangi sovutish kamerasi tashkil etildi va modernizatsiya qilindi. Mamlakatimizda meva-sabzavotlarni saqlashning umumiy quvvati 832 ming tonnaga yetkazildi. Bu esa, yil davomida narxlarning mavsumiy keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymasdan, aholini asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, ushbu mahsulotlarni yeksport qilishni kengaytirish, narx-navo barqarorligini saqlash imkonini bermoqda. Bularning barchasi fidoyi dehqon va fermerlarimiz, barcha qishloq xo'jaligi xodimlarining mashaqqatli va sharaqli mehnati mahsulidir, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Fursatdan foydalanib, bugun, mana shu yuksak minbardan turib, barcha qishloq mehnatkashlariga yana bir bor chin qalbidan samimiy minnatdorlik izhor yetishni o'zimning burchim deb bilaman. O'tgan yili iqtisodiyotimizni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, bandlikni ta'minlash, odamlarimizning daromadi va hayot sifatini oshirishning muhim omil va yo'nalishlaridan biri tariqasida xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish borasidagi tizimli ishlar izchil davom yettirildi. 2015-yilda yalpi ichki mahsulot o'sishining yarmidan ko'pi xizmat ko'rsatish sohasi hissasiga

to'g'ri kelgani bu tarmoqning iqtisodiyotimizdagi o'rni va ta'siri naqadar katta ekanini ko'rsatadi.

Zamonaviy texnologiyalar asosida paxta tolasini va meva-sabzavot mahsulotlarini chuqur qayta ishlash tashqi va ichki bozorda talab yuqori bo'lgan tayyor, ekologik toza to'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2030-yilda 5,6-marta, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash hajmini esa 5,7 karra oshirish imkonini beradi. Bu ro'yxatni yana davom ettirish mumkin. Tashqi bozorlarda xaridorgir, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan zamonaviy tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish va yangi bosqichga ko'tarish tayyor mahsulotlar eksportining barqaror yuqori o'sish sur'atlariga erishishda, hech shubhasiz, katta zamin tug'diradi. Shuni aytish kerakki, bugungi kunda mamlakatimizda bu boradagi ishlar boshlab yuborilgan. Ayni vaqtda bu ishlar yuqori salohiyatga ega bo'lgan har bir turdagi istiqbolli xomashyo va yarim fabrikat bo'yicha chuqur qayta ishlashning 2020, 2025, 2030-yillarga mo'ljallangan aniq dasturiga ega bo'lish uchun mutlaqo yangi dasturiy kompleks yondashuvni talab etadi. Ayni shu ko'z bilan qaraydigan bo'lsak, ya'ni, jahon iqtisodiyotining rivojlanish jarayonlarini chuqur tahlil qilgan, o'zimizning resurs va imkoniyatlarimizni real baholagan holda, biz oldimizga aniq maqsadni – ya'ni, 2030-yilga borib mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot hajmini kamida 2 barobar oshirish vazifasini qo'yishimiz uchun bugun, hech shubhasiz, barcha asoslarimiz bor. Bu yo'lda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hisobidan sanoatni jadal rivojlantirish va yalpi ichki mahsulotda uning ulushini 2015-yildagi 33,5 foizdan 40 foizga yetkazish, qishloq xo'jaligi ulushini esa 16,6 foizdan 8-10 foizga kamaytirish, energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish evaziga yalpi ichki mahsulot uchun sarflanadigan energiya hajmini taxminan 2 barobar qisqartirishga erishmog'imiz kerak. Biz o'z oldimizga qo'ygan vazifalar qanchalik asosli ekanini quyidagi hisob-kitoblar ko'rsatib turibdi.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 2016-2030-yillarda 2 barobar ko'payishiga erishish uchun o'rtacha yillik o'sish sur'atlari 4,8 foiz darajasida bo'lishini ta'minlash zarur. Agar keyingi 11-yilda bu ko'rsatkich 8 foizdan yuqori

bo'lib kelganini hisobga oladigan bo'lsak, bu vazifani amalga oshirish uchun mustahkam asos va zamin borligi yaqqol ayon bo'ladi.

Hurmatli majlis qatnashchilari! Qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish 2016-yil va yaqin istiqbolga mo'ljallangan iqtisodiy dasturimizning prinsipial muhim yo'nalishidir. Aytish kerakki, mazkur tarmoqda xo'jalik yuritishning fermerlik tizimiga o'tilishi munosabati bilan fermerlar uchun ijara mulki huquqi asosida ajratiladigan yer maydonlarini optimallashtirish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Bu tadbirni amalga oshirish, birinchi navbatda, sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida, suv taqchilligi va yerlarning aksariyat qismi kuchli sho'rlangan bir vaziyatda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va qishloq tumanlarida ekin maydonlari amalda tuproq unumdorligi va yer boniteti bo'yicha keskin farq qilishi bilan bog'liq.

Turli mintaqalarda tashkil qilingan fermer xo'jaliklarining to'plagan rivojlanish tajribasi, samaradorligi va rentabelligini hisobga olgan holda, ularni oqilona va qulay miqdordagi yer uchastkalari bilan ta'minlash uchun qattiq ish olib borishga to'g'ri keldi. Shu borada yer maydonlari hajmini aniqlashda subektiv yondashuvlarga yo'l qo'ymaslik va bunday holatlarning oldini olishda ana shu o'ta muhim ishni amalga oshirish mas'uliyati deputatlar korpusi, Fermerlar kengashi va jamoatchilik zimmasiga yuklatilgani hal qiluvchi omil bo'ldi. Yer maydonlarining optimallashtirilishi natijasida 17 ming 500 dan ortiq yangi fermer xo'jaligi va 250 mingdan ziyod ish o'rni tashkil etildi. Toshkent, Jizzax, Namangan, Samarqand, Qashqadaryo, Farg'ona, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida yeng ko'p fermer xo'jaliklari faoliyati yo'lga qo'yildi. Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer maydonlari ajratish va taqsimlashning yangi mexanizmi joriy yetildi. Unga muvofiq, qarorni tuman hokimi emas, balki Fermerlar kengashi va Yer uchastkalari taqdim etish masalalarini ko'rib chiqish komissiyasi xulosasi bo'yicha xalq deputatlari tuman kengashlari qabul qilmoqda. Yana bir o'ta dolzarb va uzoqni ko'zlagan masalaga

alohida to'xtalib o'tmoqchiman. Bu o'rinda 2020-yilgacha paxta xomashyosini yetishtirish va uni davlat tomonidan xarid qilish hajmini 3 million 350 ming tonnadan 3 million tonnaga bosqichma-bosqich qisqartirish haqida so'z bormoqda.

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatmoqdaki, shunday hajmdagi yetishtiriladigan paxta hosili, bir tomondan, xomashyoni o'zimizda chuqur qayta ishlashni inobatga oladigan bo'lsak, avvalo, to'qimachilik va yengil sanoatning ana shu xomashyoga bo'lgan yehtiyojini nafaqat to'la ta'minlaydi, balki O'zbekistonning jahon bozoriga paxta tolasi va undan tayyorlanadigan mahsulotlar yetkazib beradigan mamlakat sifatidagi mustahkam mavqeini saqlab qolish imkonini ham beradi. Paxta yetishtirish hajmini 350 ming tonnaga qisqartirish hisobidan 170 ming 500 gektar sug'oriladigan yer paxtadan bo'shaydi. Bu jarayonda, albatta, avvalo mamlakatimiz bo'yicha paxta hosildorligi gektaridan o'rtacha 26,1 sentnerni tashkil yetib turgan bir paytda hosildorligi 12-15 sentnerdan oshmaydigan past bonitetli yerlarni paxtadan bo'shatishga e'tibor qaratiladi. Asosan sho'rlangan, shuningdek, paxta yetishtirishga yaroqsiz bo'lgan tog'oldi yerlariga g'o'za ekilmaydi. Bunday qarorga kelishimizning yana bir sababi borki, u ham bo'lsa, so'nggi yillarda jahon bozorida paxta tolasining narxi va unga bo'lgan talabning keskin pasayib ketishi bilan bog'liqdir.

Paxtadan bo'shagan ekin maydonlarida avvalo, sabzavot va kartoshka, shular qatorida ozuqa yekinlari, yog'-moy olinadigan va boshqa o'simliklar ekiladi, bog' va uzumzorlar barpo yetiladi. Ekin maydonlarining optimallashtirilishi va zamonaviy agrotexnologiyalarning joriy etilishi natijasida 2020-yilda boshqoli don yetishtirishni 16,4 foizga oshirib, uning hajmini 8 million 500 ming tonnaga yetkazish, kartoshka yetishtirishni 35 foizga, sabzavotni 30 foizga, meva va uzumni 21,5 foiz, go'sht yetishtirishni 26,2 foizga, sutni 47,3 foiz, tuxumni – 74,5 foizga ko'paytirish, baliq yetishtirishni 2,5-martaga oshirish ko'zda tutilmoqda. Ayni paytda ana shu turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish hajmi sezilarli darajada ortishini ham hisobga olish zarur.

Jahon bozorlarida raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi sharoitda iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini tubdan oshirish, eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, fermer xo'jaliklari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlarining eksport faoliyatidagi ishtirokini har tomonlama rag'batlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Aynan ana shu sohalarida hali foydalanilmagan ulkan imkoniyat va salohiyat ko'p.

Aziz do'stlar, barchangizga yaxshi ma'lum, biz yangi yil arafasida 2016-yilga yurtimizda Sog'lom ona va bola yili deb nom berishga qaror qildik.

Xalqimizning asriy an'analaridan kelib chiqqan holda, biz faqatgina sog'lom onadan sog'lom bola tug'ilishiga, ona va bola sog'lom bo'lsa, oila baxtli, oila baxtli bo'lsa, jamiyat mustahkam bo'lishiga qat'iy ishonamiz. Bu borada qabul qilinadigan davlat dasturida oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada mustahkamlash, perinatal va skrining markazlar, patronaj xizmatlarning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini shakllantirish va mustahkamlash, yosh onalar va bolalarni parvarish qilish darajasi va sifatini oshirish, oilada sog'lom ma'naviy muhit yaratish, qiz bolalarni jismonan sog'lom va intellektual rivojlangan etib tarbiyalash, ularning akademik lisey va kasbhunar kollejlarida ta'lim olishi, sport bilan muntazam shug'ullanishini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu Dasturga muvofiq ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarni amalga oshirishimiz lozim.

Aziz farzandlarimiz, mehribon onalarning, muxtasar aytganda, butun xalqimizning jismoniy sog'lomligi va ma'naviy kamolotini yanada mustahkamlash, hech shubhasiz, bizning mana shunday o'ta muhim vazifalarni qay darajada amalga oshirishimizga bevosita bog'liq bo'lib, barchamiz bu ezgu ishda o'zimizni ayamasdan, faol qatnashamiz, deb ishonaman.

Qadrli yurtdoshlar! O'tgan 2015-yilda amalga oshirgan keng ko'lamli ishlarimiz bilan faxrlanisha bugun bizning barcha asoslarimiz bor. Biz ozod va obod Vatanimiz mustaqilligining qutlug' 25-yilligi keng nishonlanadigan 2016-yilga katta maqsad va rejalar bilan qadam qo'ydik. Yangi tariximizning yeng yorqin sahifasini tashkil etadigan ana shu buyuk sanaga har tomonlama munosib

va salmoqli hissa qo'shish O'zbekistonning har bir fuqarosi uchun ulkan sharaftir, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman. Albatta, 2016-yil biz uchun oson bo'lmaydi, ammo, ishonchim komil – ko'pni ko'rgan xalqimizning fidokorona mehnati, azmu shijoati bilan barcha ko'rsatkichlar bo'yicha yangi yilimiz 2015-yildan ziyoda bo'ladi, aslo kam bo'lmaydi. Bunga hyech qanday shubha bo'lishi mumkin emas. Mana shunday olijanob maqsad yo'lida barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad yor bo'lishini tilayman» - deb o'z ma'ruzalarini tugatgan edi.

O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov 2012 yil 17-18 fevral kunlarida bo'lib o'tgan **“Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash-mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizasiya qilishning eng muhim sharti”** mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimida qatnashchilarni qutlab, mamlakatimizda iqtisodiy vaziyatni barqarorlashtirish va izchil taraqqiyotni ta'minlashga yaratilgan chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlashga o'lgan hissa qo'shgan xalqaro tashkilotlarga o'z tashakkurini izhor etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida (2006 yil. 23 mart), hamda 2008 yil 21 – apreldagi “Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorida shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarini” rivojlantirish izchil amalga oshirib borilayotganligi, aholiga qo'shimcha yerlar berilayotganligi, shuningdek ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi, shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari ko'paytirishga, ichki iste'mol bozorini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkoniyat yaratilayotganligi ta'kidlanib, ayni paytda shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida zotdor va sermahsul chorva mollari sonini ko'paytirish, zooveterinariya va boshqa servis xizmatlari ko'rsatishni yaxshilash ko'zda tutilgan.

Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil, 21 aprel, PQ-842. «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi qarorda ta'kidlanishicha shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarni yanada ko'paytirish, shu asosda qishloq aholisining bandligi va daromadlarini, go'sht-sut mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishini oshirish hamda ichki iste'mol bozorining to'ldirilishini ta'minlash maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Fermer xo'jaliklari uyushmasi hamda boshqa manfaatdor tuzilmalar bilan birgalikda ishlab chiqilgan:

shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirish va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar 1-ilovaga muvofiq;

2008-2010 yillardagi davrda shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida qoramollar soni ko'payishining maqsadli parametrlari 2-ilovaga muvofiq;

2008-2010 yillarda sug'oriladigan yerlarda yem-xashak ekinlari maydonlarining hisoblab chiqilgan prognozi 3-ilovaga muvofiq ma'qullansin deyilsin.

Qishloq va suv xo'jaligi vaziri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi raisi, viloyatlar va tumanlar hokimlar zimmlariga mazkur qaror bilan tasdiqlangan tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli ijro etish yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklatilsin.

2. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, tijorat banklarining 4-ilovaga muvofiq shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklariga qoramol sotib olish uchun mikrokreditlar ajratishni kengaytirish to'g'risidagi taklifiga;

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining respublika «O'zlaschilik» korxonasining ishlab chiqarish quvvatlarini modernizasiya qilish,

servis punktlari tarmoqlarini tashkil etish yo'li bilan chorva mollarni sun'iy urchitish bo'yicha o'z bazasini yaratish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

3. Belgilansinki, chorvachilikka ixtisoslashtirilgan fermer va boshqa xo'jaliklarga, shuningdek, parrandachilik korxonalariga ajratilgan sug'orma yerlar faqatgina yem-xashak ekinlari ekish uchun mo'ljallangan va davlat ehtiyojlari uchun paxta hamda donli ekinlar ekishda foydalanilmaydi.

«O'zqishloqmashlizing» kompaniyasi mahalliy korxonalar – «agregat zavodi» OAJ va «Urganchemmash» AJ tomonidan ishlab chiqarilayotgan yem-xashakni yig'ishtirib oladigan texnikani qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarga lizing asosida berilishini tashkil etsin.

«O'zdonmahsulot» AK 5-ilovadagi prognoz hajmlariga muvofiq fermer xo'jaliklari ixtiyorida qolyotgan, chorvachilik uchun to'laqonli omixta yem ishlab chiqarishning oshirilishini ta'minlaydigan omixta yem sanoatini modernizasiya qilish va qo'shimcha don resurslari xarid qilishni tashkil etishning aniq chora-tadbirlari amalga oshirilishini ta'minlansin.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Chigit yetkazib berish mexanizmini hamda o'simlik yog'i va yog'-moy mahsulotlari sotishni tartibga solish to'g'risida» 2006 yil 31 maydagi PQ-360-sonli qarori 3 va 4-bandlari, shuningdek, mazkur qarorning 2-ilovasi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

2008 yilning hosilidan boshlab shunday tartib o'rnatilsinki, bunda chigitni qayta ishlashdan olinadigan shrot va sheluxa O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasi orqali to'la-to'kis ichki bozor hamda eksportga sotilishi kerak.

Yem, shu bilan birga, shrot va sheluxaning eksportga sotilishi erkin ayirboshlanadigan valyutada amalga oshiriladi.

5. Vazirlar Mahkamasining Qishloq va suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda iste'mol tovarlari kompleksi:

Bir oy muddatda yem-xashak, jumladan, shrot va sheluxa sotishga ixtisoslashtirilgan punktlar tarmog'ini inventarizasiyadan o'tkazsin, bunda ularning viloyatlar, tumanlar va aholi punktlari bo'yicha oqilona joylashtirilishini, yem-

xashak iste'molchilari – fermerlar, shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklari egalarining ulardan keng foydalanishi ta'minlanishini nazarda tutsin;

Inventarizasiya natijalariga ko'ra, viloyat va tumanlar doirasida yem-xashak, shu jumladan omixta yem, shrot va sheluxa sotish bo'yicha ixtisoslashtirilgan yagona punktlar tarmog'ini kengaytirish va oqilona joylashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqsin.

Mazkur ixtisoslashtirilgan yagona punktlar negizida tuman va viloyat birlashmalari tashkil etilsin. Ushba birlashmalar zimmasiga O'zbekiston Respublika tovar-xomashyo birjasi ochiq birja savdolari orqali yem-xashak, jumladan, omixta yem, shrot, sheluxa va boshqalar xarid qilinishi, ularning yetkazib berilishi hamda fermerlar va aholiga sotilishi yuzasidan javobgarlik yuklatilsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda Davlat Bosh veterinariya boshqarmasi zooveterinariya punktlarini, kamida 10 yil mobaynida ularning faoliyat yo'nalishini o'zgartirmaslik sharti bilan, shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jalilariga zooveterinariya xizmatlari ko'rsatish sohasida xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun davlat tasarrufidan chiqarish hamda xususiylashtirish bo'yicha takliflarni Vazirlar Mahkamasiga kirit sin.

7. «Paxta-bank» ATB va boshqa tijorat banklariga imtiyozli kreditlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan kredit berish yo'li bilan zooveterinariya xizmati ko'rsatish hamda mollarni sun'iy urchitish korxonalariga zarur zootexnik va laboratoriya jihozlari hamda transport vositalarini sotib olishda ustuvor tartibda ko'maklashish tavsiya etilsin.

«O'zqishloqmashlizing» kompaniyasi zooveterinariya xizmati ko'rsatish korxonalari uchun zootexnik va laboratoriya jihozlari lizing asosida yetkazib berilishini ta'minlasin.

8. Quyidagilar 2012 yilning 1 yanvarigacha bo'lgan davrda, istisno tariqasida: naslchilik ishi korxonalari va Respublika «O'z naslchilik» korxonasi asosiy faoliyat turi bo'yicha barcha soliqlar va davlatning maqsadli jamg'armasiga

majburiy ajratmalar to'lashdan; naslchilik chorvachilik xo'jaliklari, naslchilik ishi korxonalari, parrandachilik korxonalari va omixta yem ishlab chiqaruvchi korxonalar, shuningdek, «o'zzoovetta'minotxizmat» birlashmasi olib kelinadigan naslchilik materiallari, zooveterinariya xizmati ko'rsatishni rivojlantirish uchun texnologiya va yordamchi uskunalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha omixta yem ishlab chiqarish komponentlari bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylash-tiruvchi yig'imlaridan tashqari); zooveterinariya punktlari – korxonani ro'yxatga olishda va veterinariya faoliyatini amalga oshirish huquqiga lisenziya berishda davlat boji to'lashdan; fermer xo'jaliklari va chorvachilik fermalari – chorvachilik mahsulotlarini, jumladan, uning qayta ishlagan mahsulotini sotish tushumidan davlatning maqsadli jamg'armalari hamda maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod qilinsin.

9. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Fermer xo'jaliklari uyushmasi ommaviy axborot vositalarida chorvachilikni rivojlantirish hamda uni yuritish, mahsuldor mollarni yaratish va boqishning zamonaviy usullari, qishloqda chorvachilikning bozor infratuzilmasini kengaytirish ilg'or tajribasini targ'ib etish masalalarini yoritish bo'yicha maxsus dasturlar va ruknlar tashkil etsin.

Chorvachilik islohotlariga bag'ishlangan ushbu vazifalarni bajarishda respublikamizga chetdan keltirilayotgan zotli sigirlarning kasalliklarini o'z vaqtida aniqlash ilmiy asoslangan davolash va oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish veterinariya mutaxassislari oldidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Hayvonlarning yuqumsiz kasalliklari bu muammolarni samarali hal etishga katta to'sqinlik qilmoqda. Bu kasalliklar orasida yod, kobalt, mis yetishmovchiligi kabi endemik kasalliklar asosiy o'rinni egallaydi.

Mavzuning dolzarbligi. Adabiyot ma'lumotlarining tahlili va shaxsiy kuzatishlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Respublikamizning chorvachilik fermer xo'jaliklarida sigirlar orasida yo'ldoshni ushlanib qolishi va boshqa ginekologik

kasalliklarning keng tarqalganligiga qaramasdan bu kasalliklarning sabablari, iqtisodiy zarari, rivojlanish xususiyatlari, barvaqt diagnostika qilish, davolash va guruh usulida oldini olish chora-tadbirlari to'liq ishlab chiqilmagan.

Xalq xo'jaligining barcha sohalaridagi singari chorvachilik fermalarini xususiylashtirilishi, chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi ularda mavjud bo'lgan qishloq xo'jalik hayvonlarining doimiy ravishda veterinariya nazoratidan o'tkazib borishni, reproduktiv yoshdagi hayvonlarda uchraydigan kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash, samarali vositalar bilan davolash va oldini olish orqali yuqori maxsuldorlikni ta'minlash imkonini beradigan veterinariya, zootexniya tadbirlarini o'tkazib turishni talab etadi.

Hayvonlarning yo'ldoshni ushlanib qolishi kabi ginekologik kasalliklar bilan kasallanishi oqibatida mahsulot birligi uchun oziqalar sarfining ortishi, mahsuldorlik va ona hayvonlar reproduktiv xususiyatlarining yomonlashishi hisobiga xo'jaliklar katta iqtisodiy zarar ko'radi.

Adabiyotlar ma'lumotlarini (Sokolova, O.V 2007; Koba. I.S 2009; Chomayev A.M.va boshqalar, 2003; .Romanyuk .V.L, 2004;.Borisevich .V.B va b., 2005; Denisenko. V.Nva b., 2005;.Avzalov. R.X va b., 2006, Norboyev. Q.Nva b., 2007; Ata-Kurbanov Sh.B, Eshburiyev .B.M. 2008, 2009) tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, hozirgi kungacha sigirlarda yo'ldoshni ushlanib qolishi kasalliklarining etiopatogenezi, diagnostikasi va oldini olish usullari to'lig'icha o'rganilmagan, shuningdek, adabiyotlarda fermer xo'jaliklari sharoitida chetdan keltirilgan zotdor sigirlarda bu kasallikni oldini olishda mahalliy vositalardan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlarni deyarli uchratmadik.

Mavzuning maqsadi va vazifalar. Sigirlarda yo'ldoshni ushlanib qolishi va uning oqibatida kelib chiqadigan ginekologik kasalliklarining etiologiyasida hayvonlarni saqlash sharoitlari va alimentar omillarning ahamiyati, kasalliklarning kechish xususiyatlari, erta aniqlash va samarali davolash usullari hamda oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqilmagan.

Shuning uchun quyidagi muammolarni o'rganishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik:

- Qoramolchilik fermer xo‘jaliklari sharoitida sigirlar orasida yo‘ldoshni ushlanib qolishi va uning oqibatida kelib chiqadigan ginekologik kasalliklarining tarqalishi, asosiy turlari hamda ularning xo‘jaliklarga keltiradigan iqtisodiy zararini o‘rganish;

- sigirlarda yo‘ldoshni ushlanib qolishi va uning oqibatida kelib chiqadigan ginekologik kasalliklarining rivojlanish xususiyatlari, erta aniqlash, kasalliklarning simptom va sindromlari, qondagi morfobiokimyoviy o‘zgarishlarni o‘rganish;

- sigirlarda yo‘ldoshni ushlanib qolishi va uning oqibatida kelib chiqadigan ginekologik kasalliklarini davolash usullarini takomillashtirish va oldini olishga qaratilgan guruhli profilaktik tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish.

II. ADABIYOT MA'LUMOTLARINING SHARHI

II.1. Sigirlarda yo‘ldoshni ushlanib qolishining sabablari, patogenezi klinikasi va oqibatlari.

Adabiyotlar ma'lumotlarini tahlili va shaxsiy kuzatishlar asosida sigirlarda ginekologik kasalliklardan yo‘ldoshni ushlanib qolishi, bachadon subinvalyutsiyasi, tug‘ruqdan keyingi parez, bachadonni chiqishi, tug‘ruqdan keyingi infeksiyalar, bachadonni yallig‘lanishlari ko‘p qayd etilishi ma'lum bo‘ldi.

Fermer xo‘jaliklariga chetdan keltirilayotgan mahsuldor sigirlar orasida osteodistrofiya, gipokuproz, gipokobaltoz, alimentar anemiya, buqoq kabi vitaminlar va mineral moddalar almashinuvi buzilishi bilan kechadigan kasalliklari oqibatida ularda yo‘ldosh ushlanib qolish kasalligi ko‘p qayd etilib, oziqalar sarfining ortishi, mahsuldorlik va chorvachilik mahsulotlari oziqaviy qimmatining pasayishi, ona hayvonlarning bepushtligi hisobiga xo‘jaliklar katta iqtisodiy zarar ko‘rmoqda.

Shuning uchun ona hayvonlarning moddalar almashinuvi buzilishlari oqibatidagi kuzatiladigan yo‘ldoshi ushlanib qolishi, tug‘ruq falaji, bachadonni chiqishi kabi ginekologik kasalliklarni o‘z vaqtida aniqlash va oldini olish chora-

tadbirlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanib, hayvonlarni yetarlicha oziqlantirmaslik ularda moddalar almashinuvining buzilishi, sigirlar jinsiy a'zolarida funksional va morfologik o'zgarishlar kuzatilishi, qisir qolishiga (alimentar qisirlik) olib keladi. To'laqimmatli oziqlantirmaslik, ayniqsa, bo'g'ozlikning oxirgi ikki oyida salbiy ta'sir etadi. Shuningdek, qish va bahorda to'liq oziqlantirilmagan sigirlarning 50 foizida yozgi paytda ham moddalar almashinuvi darajasi tiklanmaydi. Shuning uchun har bir xo'jalikda moddalar almashinuvi darajasini nazorat qilish va oziqlantirishni tartibga solish maqsadida vaqti-vaqti bilan ayniqsa, qish va bahor oylarida sigir va g'unojinlar qonidagi kalsiy, fosfor, karotin, oqsil va zahira ishqoriylik darajasini tekshirib turish lozim (V.N. Baymatov va b., 2006).

Homila yo'ldoshini ushlanib qolishi (*Retentio placintae*) deb homila pardalarini bachadonda muddatidan ko'proq saqlanib qolishiga aytiladi. Yo'ldosh sigirlarda homila tug'ilgandan 24-28 soatdan keyin o'zi tabiiy holda tushmasa qo'l bilan ajratib olinadi. Kasallik ko'pincha kech qish va erta bahor fasllarida qayd etiladi.

Yo'ldoshning o'z vaqtida ajralmasligiga bachadonni yetarli darajada qisqarmasligi (tug'ishni og'ir o'tishi, egizak homiladorlikda), homila pardalari orasida haddan tashqari ko'p suyuqlik to'planishi, homilani juda katta bo'lishi tufayli bachadonning cho'zilib ketishi kabilar sabab bo'ladi. Shuningdek, kuchanish va to'lg'oq kuchsiz bo'lganida ham yo'ldosh ajralmay qoladi. Yo'ldoshning ajralmay qolishi hayvonlarni yetarlicha oziqlantirmaslik, yoki aksincha, hayvonlar juda semirib ketishi, masionning yetarli bo'lmasligi oqibatida bachadonning atoniyasi, hayvonning bo'g'ozlik davrida bachadonida paydo bo'ladigan yallig'lanish jarayonlari oqibatida kuzatilishi ham mumkin. Bunda shilliq parda shishadi, natijada so'rg'ichlar korunkulalarda tutilib qoladi va kuchanish to'lg'oq zo'rayganda ham ajralmaydi. Yo'ldosh yallig'langanda ham xorion parda so'rg'ichlari shishib, ularning bachadon shilliq pardasiga mahkam yopishib qolishiga sabab bo'ladi.

Ba'zan bachadon bo'yinchasi yo'lining vaqtidan oldin yopilib qolishi yoki bo'g'ozlik rivojlanmagan bachadon shoxi haddan tashqari kuchli qisqarganda, homila pardalarining shu shoxda qisilib qolishi tufayli ham yo'ldosh ajralmay qoladi. Yo'ldoshning saqlanib qolishini aniqlash qiyin emas, chunki u ko'pincha har xil uzunlikdagi ko'rinishida jinsiy yoriqdan osilib turadi.

Yo'ldoshning saqlanib qolishi to'liq, noto'liq va qisman bo'ladi. Yo'ldoshning osilib turgan qismi sakrash bo'g'inlarigacha ba'zan hatto yergacha tushib tursa, bu qisman ushlanib qolishi bo'ladi. Bunda xorion parda bachadonga bir necha karunkulalar bilan tutashgan bo'ladi.

Yo'ldoshning hammasi jinsiy yo'llarda turgan bo'lsa xorion parda bachadonning har ikkala shoxida karunkulalarga tutashgan bo'lsa bu to'liq ushlanish deyiladi, bunday paytda diagnoz anamnez va ichki tekshirishlar natijasida qo'yiladi. Agar yo'ldosh bachadonning bitta shoxida ushlanib qolsa, unda noto'liq ushlanish deyiladi. Sigirlarda ko'pincha yo'ldoshning noto'liq va qisman ushlanib qolishi kuzatiladi. Bu vaqtda homila pardalari jinsiy yo'llardan osilib turadi.

Sigirlarning yo'ldoshi 2 kundan ortiq ajratib olinmasa chiriy boshlaydi. Bunday yo'ldosh ilvirab, kulrang tusga kiradi va qo'lansa hid chiqaradi. Yo'ldoshni chirishidan hosil bo'lgan moddalarning qonga so'rilishidan organizmning zaharlanishi tufayli hayvonda umumiy holsizlanish, ishtahaning yo'qolishi, tana haroratini ko'tarilishi, sut berishni kamayishi kuzatiladi. Tug'ish yo'llaridan qo'lansa hidli qon va shilimshiq suyuqlik, ayrim paytlarda chirigan homila pardalarining bo'laklari keladi.

Yo'ldosh 7-9 kun davomida ajralmasa, sigirning umumiy ahvoli og'irlashadi. Ishtaha va kavsh qaytarish yo'qolib, sut berish butunlay to'xtaydi, tana harorati ko'tariladi. Jinsiy yo'llardan qo'lansa hidli suyuqlik kelishi kuchayadi. Qin orqali tekshirilganda bachadon bo'yinchasi kanali yarim ochiq holatda bo'ladi. Chirigan yo'ldosh ajralib tushgandan keyin hayvonning umumiy ahvoli yaxshilanib borsada, jinsiy yo'llarning yallig'lanishi sababli hayvon uzoq muddat, ba'zan esa umr bo'yi qisir qolishi mumkin. Bachadondagi mikroorganizmlar ko'pincha limfa va qon

tomirlariga o'tib, mastitlar, orqa oyoqlarda tuyoqlar orasining yallig'lanishi, sepsis yoki piyemiyaga sabab bo'lishi, natijada hayvon halok bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarish sharoitida yo'ldoshni ajratib olish uchun operativ usullar bilan bir qatorda konservativ usullardan ham foydalaniladi. Konservativ usul turli preparatlarni qo'llash orqali bachadon muskullari tonusini oshirish va mikroorganizmlar rivojlanishining oldini olishga qaratilgan. Bunda yo'ldoshning osilib turgan qismi, tashqi jinsiy a'zolar, hayvonning dumi dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan har kuni 2-3 marta yuviladi. Mikroorganizmlarga qarshi yo'ldosh bilan bachadon orasiga qin orqali vazelin yoki baliq moyiga (150-200 ml) aralashtirilgan holda antibiotiklar, sulfanilamidlar va boshqa vositalar kerakli miqdorda qo'yiladi. Bachadon muskullari tonusini oshiruvchi moddalar sifatida teri ostiga oksitosin, pitiutrin, amnisiron (5-10 ml), 1%-li sinestroidan 2-5 ml yuboriladi, 500 g qand suvga eritilib ichiriladi. N.A.Flegmatov yo'ldosh ajralmay qolganda miotonik ta'sir etuvchi (bachadon muskul qavatini qisqartiradigan) homila oldi suyuqligidan foydalanishni tavsiya etadi. Buning uchun qog'onoq yorilib, homila bachadondan chiqarilayotgan vaqtda homila oldi suvlari toza idishlarga olinadi va 30S haroratda ko'pi bilan 2-3 sutka saqlanadi. Bu suyuqlik yo'ldoshi saqlanib qolgan sigirlarga 3 l dan 5-6 soat oralatib, 3-4 marta berilishi mumkin.

Yo'ldoshni ushlanib qolishini oldini olish va davolashda konservativ usullar samara bermaganda sigirni tug'ishidan 24 soat o'tgach, 36 soatgacha vaqt oralig'ida homila yo'ldoshi qulda ajratib olinadi (B.M.Eshburiyev, 2014).

Yo'ldoshning o'z vaqtida ajralmasligiga bachadonning yetarli qisqarmasligi, (bunday hol egizak homilada, ayniqsa sigirlarda), homila pardalari orasiga haddan tashqari ko'p suyuqliklar to'planishi, katta homila tufayli bachadonning cho'zilib ketishi sabab bo'ladi. Shuningdek, kuchaniq va to'lg'oq kuchsiz bo'lganida ham yo'ldosh ajralmay qoladi. Yo'ldoshning ajralmay qolishi va hayvonlarni yetarlicha oziqlantirmaslik, yoki aksincha, hayvonlar juda semirib ketganida ham kuzatiladi. Bundan tashqari, ratsionda vitaminlar va mineral tuzlar yetishmasligi ham yo'ldoshning o'z vaqtida ajralmasligiga sabab bo'ladi (I.P. Kondraxon . va b, 2005).

Hayvonlar molxonada bog'lab boqilganida ularga matsion yetarli bo'lmaganligi uchun bachadon bo'shashib qoladi (atoniya) va bu holat yo'ldoshning ushlanib qolishiga olib keladi. Yo'ldoshning ajralmasligiga hayvonning bo'g'ozlik davrida bachadonda paydo bo'ladigan yallig'lanish jarayonlari ham sabab bo'lishi mumkin. Bunda shilliq parda shishadi, natijada so'rg'ichlar korunkulalarga tutilib qoladi va kuchaniq, to'lg'oq zo'rayganda ham ular ajralavermaydi. Yo'ldosh yallig'langanda ham xoriyon parda so'rg'ichlari shishib ketadi, bu esa ularning bachadon shilliq pardasiga mahkamroq yopishib qolishiga sabab bo'ladi.

Ba'zan bachadon bo'yinchasi yo'lining vaqtidan oldin yopilib qolishi yoki bola rivojlanmagan bachadon shoxi haddan tashqari kuchli qisqarganda, homila pardalarining shu shoxda qisilib qolishi tufayli ham yo'ldosh ajralmay qoladi. Yo'ldoshning saqlanib qolishini aniqlash qiyin emas, chunki yo'ldosh ko'pincha har xil uzunlikdagi ko'rinishida jinsiy yoriqdan osilib turadi.

Yo'ldoshni ajratish texnikasi. Hayvonlarda saqlanib qolgan yo'ldoshni ajratib olishdan oldin keyilgan xalatlarning ustidan fartuk (etak), bir qo'lga maxsus yengcha, oyoqlarga rezina etik kiyiladi. Kasal hayvon jinsiy lablari, dumining asosi, chot qismi sovunlab, issiq suv bilan tozalab yuviladi, keyin dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan (2%-li lizol yoki 0,1%-li kaliy permanganat eritmasi) artiladi. Lekin bu eritmalarini bachadonga o'tib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Chunki bunda bachadonga eritmalar bilan mikroorganizmlarning o'tishi va endometritlar rivojlanishi mumkin. Shuningdek, eritmalarini qinga kuchli bosim ostida yubormaslik va tashqariga chiqarilishini ta'minlash lozim. Yo'ldoshni ajratish paytida xalaqit bermasligi uchun hayvonning dumi bint bilan o'ralib, yon tomoniga tortilib bo'yniga bog'lanadi. Qo'llar sovunlab issiq suv bilan toza yuvilib, yodlangan spirt (1:1000) bilan artiladi. Qo'lning shilingan, tirlalgan joylari yodning 5%-li spirtli eritmasi bilan artiladi va ustidan kolloid eritma quyiladi.

Ko'pincha yo'ldoshni ajratish paytida bachadonga bir necha marta kaliy permanganatning 0,1%-li eritmasidan ko'p miqdorda yuboriladi. Bu bachadondagi

o'ziga xos muhitning o'zgarishi, yallig'lanish mahsulotlarini bachadon shilliq pardasining ko'p joyiga tarqalishi, tuxum yo'lida biriktiruvchi to'qimaning o'sishi va bekilib qolishi, shuningdek, bachadon subinvalyusiyasiga sabab bo'lishi mumkin.

Yo'ldoshni ajratish jarayonida 2 ta qo'lga ham akusherlik qo'lqopi kiyiladi va steril eritmalar bilan namlanadi. Shundan keyin jinsiy yo'llardan osilib chiqqan homila pardalari qo'l bilan buralib sekinlik bilan tortiladi. Ikkinchi qo'l bachadonga yo'ldosh bo'ylab yuborilib, bachadon shilliq pardalarining tutashgan joyi-birinchi karunkula topiladi, uning bo'yin qismidan ko'rsatkich va o'rta barmoqlar bilan ushlanib, katta barmoq yordamida karunkulalardan tomirli parda so'rg'ichlari ajratiladi. Keyin navbatdagi karunkula topilib, bu muolaja qaytariladi, shu tartibda yo'ldosh bachadon shoxlaridan ajratiladi. Yo'ldosh ajratilgandan keyin karunkulalar yuzasi g'adir-budur (ajratilmasdan oldin silliq) bo'ladi.

Hayvon bezovtalanib, bachadon bo'yinchasi kanali kuchli qisqarganda birinchi dum umurtqasi oralig'ida epedural anesteziya o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Bachadonni qisqarishini kuchaytirish maqsadida teri ostiga 30-40 TB miqdorida oksitosin yoki boshqa dorilar yuborish tavsiya etiladi. Yo'ldosh ajratib olingandan keyin, toza pol yoki faner ustiga yoyilib, diqqat bilan tekshiriladi. Bunda uzilgan tomirli parda chetlari bir-biriga to'g'ri kelsa, yo'ldosh to'liq ajratilib olingan hisoblanadi, aksincha, yo'ldoshning qismlari bachadonda qolgan bo'ladi. Bunday paytda qo'l yana bachadonga yuborilib, yo'ldoshning qolgan qismi ajratib olinadi. Keyin bachadonga mikroorganizmlar faoliyatini to'xtatadigan dorilar (trisillin, ekzuter, furazolidon tayoqchasi) yuboriladi. Shu bilan bir vaqtda organizmning himoya kuchini oshirishga qaratilgan choralar ham ko'riladi. Ajratib olingan yo'ldoshni kuydirish yoki yerga chuqur ko'mish kerak.

Kasallikni oldini olish uchun sigirlarni tug'ishiga 10 kun qolgandan boshlab tug'ruqxonalarga ajratish, tuz, shirali va katta hajmli oziqalar berilishini kamaytirish, yo'ldoshni ajralmay qolishi ehtimoli belgilari kuzatilganda bachadon muskullari tonusini oshiruvchi moddalar sifatida teri ostiga oksitosin, pitiutrin,

amnisiron (5-10 ml), 1%-li sinestroidan 2-5 ml yuboriladi, 500 g qand suvga eritilib ichiriladi.

Yo'ldoshning ushlanib qolishi uch xil: to'liq, noto'liq va qisman bo'ladi. Yo'ldoshning osilib turgan qismi sakrash bo'g'inlarigacha ba'zan hatto yergacha tushib tursa, bu qisman ushlanib qolishi bo'ladi. Bunda xorion parda bachadonga bir necha karunkulalar bilan birga tutashgan bo'ladi. Yo'ldoshning hammasi jinsiy yo'llarda turgan bo'lsa, (bu, kamdan kam uchraydi), xorion parda bachadonning har ikkala shoxida karunkulalarga tutashgan bo'lsa, bu to'liq ushlanish deyiladi, bunday paytda diagnoz anamnez va ichki tekshirishlar natijasida qo'yiladi. Agar yo'ldosh bachadonning bitta shoxida ushlanib qolsa, unda noto'liq ushlanish deyiladi. Sigirlarda yo'ldoshning saqlanib qolishi ko'pincha noto'liq, qisman bo'ladi. Bu vaqtda homila pardalari jinsiy yo'llardan osilib turadi. Yo'ldosh saqlanib qolganida, jinsiy lablar shishib ketadi, ular odatda ko'kimtir qo'ng'ir rangli tezak bilan ifloslanadi. Kasal hayvon hadeb dumini likkilataverishidan dumning ichki tomoni, orqa oyoqlar tezak bilan ifloslanadi.

Sigirlarning yo'ldoshi 2 kundan ortiq ajralmasa chiriy boshlaydi. Bunda yo'ldosh ilvirab, kulrang tusga kiradi va noxush hid chiqaradi. Chiriy boshlayotgan yo'ldosh organizmni zaharlaganligi tufayli hayvonda umumiy kasallikka xos belgilar yuzaga keladi: ishtaha yo'qoladi, tana harorati ko'tariladi, sut sekresiyasi ancha kamayadi, juni hurpayib turadi, tug'ish yo'llaridan qo'lansa hid, ayrim paytlarda chirigan homila pardalari bo'laklari, qon va shilimshiqsimon suyuqlik keladi.

Yo'ldosh 7-9 kun davomida ajralmasa sigirning umumiy ahvoli og'irlashadi. Ishtahasi yo'qolib, kavsh qaytarmay qo'yadi, sut sekresiyasi to'xtaydi, tana harorati ko'tariladi. Jinsiy yo'llardan qo'lansa hidli suyuqlik kelishi kuchayadi. Ichki usul bilan tekshirganda bachadon bo'yinchasi kanali chalaroq ochilgan, o'zi biroz qisqargan bo'ladi.

Yo'ldoshning ajralmay qolishi, sut bezlari funksiyasiga ham kuchli ta'sir etib, sut miqdorining kamayib ketishiga sabab bo'ladi. Biyalarda yo'ldosh saqlanib

qolganida, hayvon bezovtalanib, tez-tez zo'r berib kuchanib turadi, bunday kuchanishlar natijasida ko'pincha bachadon chiqib qoladi.

Homila pardalari 12-24 soat davomida ajratilmasa, odatda tana harorati ko'tariladi, jinsiy yo'llardan kelayotgan to'q jigarrang suyuqlikning hidi qo'lansa bo'ladi. Shundan keyin boshlanayotgan septisemiyaning boshqa belgilari ham yuzaga chiqib, hayvonning nobud bo'lishiga olib keladi.

Mayda kavshovchi hayvonlarda kasallik sigirlarniki singari bo'ladi, lekin ular bu kasallikka juda sezgir bo'ladi, kasallik ko'pincha qoqshol va gazli flegmona bilan og'irlashadi. Cho'chqalarda yo'ldoshning saqlanib qolish kasalligi birmuncha oz kuzatiladi.

Pankov Boris Grigoryevich (2003) ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya Federasiyasining 15 dan ortiq viloyatlarida sigirlar orasida yo'ldoshni ushlanib qolishi 8,5%, klinik endometritlar 9,7% ni tashkil etib, hayvonlarni oziqlantirish sharoitlari yomonlashganda va samaradorligi past davolash usullari qo'llanilganda bu patologiyalar 70 – 80 foizga yetishi mumkin.

K.V.Plemyashev (2010) ma'lumotlariga ko'ra, sigirlarning asosiy podadan chiqarilishiga 80-90% hollarda bepushtliklar, modda almashinuvlarining buzilishi kasalliklari – 74-90%, sut bezlarining kasalliklari – 17%, tuxumdonlar gipofunksiyasi – 19%, tuxumdonlarning follikulyar va lyuteal kistalari – 3%, oyoqlarning kasalliklari – 15-17 %, ovqat hazm qilish tizimining kasalliklari- 14-16%, mahsuldorlikning past bo'lishi – 18 % hollarda sabab bo'ladi. Sigirlardan xo'jalikda foydalanish o'rtacha 2,6 laktasiyaga teng bo'lgan

Yo'ldoshni ajratish texnikasi. Hayvonlarda saqlanib qolgan yo'ldoshni ajratib olishdan oldin mutaxassis xalatlarining ustidan kleyonka fartuk (etak), bir qo'liga maxsus yengcha, oyoqlariga rezina etik kiyadi. Kasal hayvon jinsiy lablari, dumining asosi, chot qismi sovunlab, issiq suv bilan toza yuviladi, keyin dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan (2%-li lizol eritmasi yoki 0,1% kaliy permanganat eritmasi) artiladi. Dum junlari artish paytida xalaqit bermasligi uchun bint bilan o'raladi, yon tomoniga tortilib bo'yniga bog'lanadi. Qo'llarni sovunlab issiq suv bilan toza yuvib yodlangan spirt (1:1000) bilan artiladi. Shilingan,

tirnalgan joylari yodning 5%-li spirtli eritmasi bilan artiladi va ustidan kolloid eritma qo'yiladi.

Yo'ldoshni ajratadigan qo'lga (yelka bo'g'inigacha) sterillangan vazelin dezinfeksiyalovchi malham surtilishi lozim yoki akusherlik qo'lqopi kiyiladi. Shundan keyin jinsiy yo'llardan osilib chiqqan homila pardalarini qo'l bilan ushlab, burab sekinlik bilan tortiladi. 2- qo'lni bachadonga yo'ldosh bo'ylab yuborib, u bilan bachadon shilliq pardalarining tutashgan joyi – birinchi karunkula topiladi, uning bo'yin qismidan ko'rsatkich va o'rta barmoqlar bilan ushlab, katta barmoq yordamida karunkulalardan tomirli parda so'rg'ichlari ajratiladi. Shu tariqa keyingi karunkulalar topilib, bu operatsiya qaytariladi, shu tartibda yo'ldosh bachadon shoxlaridan ajratiladi. Yo'ldosh ajratilgandan keyin karunkulalar yuzasi g'adir-budur (ajratilmasdan oldin silliq) bo'ladi.

Ayrim hollarda (hayvon bezovtalanganda, bachadon bo'yinchasi kanali qisqarganda) dum qismida o'tkaziladigan epidural anesteziyadan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Hayvon bachadonining qisqarishi uchun teri ostiga 30-40 TB miqdorida oksitosin yoki boshqa dorilar yuborish tavsiya etiladi. Yo'ldosh ajratib olingandan keyin, toza pol yoki faner ustiga yoyilib, diqqat bilan tekshiriladi. Bunda uzilgan tomirli parda chetlari bir-biriga to'g'ri kelsa, demak, yo'ldosh to'liq ajratilib olingan hisoblanadi, to'g'ri kelmasa, yo'ldoshning qismlari bachadonda qolgan bo'ladi. Bunday paytda qo'l yana bachadonga yuborilib, yo'ldoshning qolgani olinadi. Keyin bachadonga mikroorganizm faoliyatini to'xtatadigan dori-darmonlar yuboriladi. Shu bilan bir vaqtda organizmning himoya kuchini oshirishga qaratilgan choralar ham ko'riladi.

Ajratib olingan yo'ldoshni kuydirish yoki yerga ko'mish kerak. Ishlab chiqarish sharoitida yo'ldoshni ajratib olish uchun operativ usullar bilan bir qatorda konservativ usullardan ham foydalaniladi. Konservativ usul sigir bachadon muskullari tonusini oshirish va mikroorganizmlar rivojlanishi-ning oldini olishga qaratilgan. Bunda yo'ldoshning osilib turgan qismi, tashqi jinsiy a'zolar, hayvonning dumi dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan har kuni 2-3 marta yuviladi. Mikroblarga qarshi yo'ldosh bilan bachadon orasiga qin orqali vazelin yoki baliq

moyiga (150-200 ml) qorilgan antibiotiklar, sulfanilamidlar va boshqa vositalar kerakli miqdorda qo'yiladi. Bachadon muskullari tonusini oshiradigan moddalar sifatida teri ostiga oksitosin, pitiutrin, amnisiron, pregnantol (5-10 ml), 1%-li sinestroidan 2-5 ml yuboriladi, 500 g qand suvga eritilib ichiriladi.

V.Ya.Nikitina va boshqalar (1999) yo'ldosh ajralmay qolganda miotonik ta'sir etuvchi (bachadon muskul qavatini qisqartiradigan) homila atrofidagi suvlardan foydalanishni tavsiya etadi. Buning uchun qog'onoq yorilib, homila bachadondan chiqarilayotgan vaqtda homila oldi suvlari toza idishlarga olinadi va harorati 3 daraja bo'lgan xonada ko'pi bilan 2-3 kecha-kundaz saqlanadi. Bu suyuqlik yo'ldoshi saqlanib qolgan sigirlarga 3 l dan 5-6 soat oralatib, 3-4 marta berilishi mumkin.

Bachadonning ag'darilib chiqishi Bunday hol tug'uruqdan keyin uchraydi va ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bachadon shoxining qin bo'shlig'iga ag'darilib chiqishi yoki kirib qolishi chala ag'darish bo'lsa, jinsiy yo'llardan bachadonning butunlay tashqariga chiqib qolishi - to'la ag'darilib chiqish deyiladi. Bu kasallik ko'pincha sigir va echkilarda, biya va cho'chqalarda esa kamroq uchraydi.

Bachadonning ag'darilib chiqishi tug'ishdan keyingi 6 soat ichida, bachadon hali qisqarib ulgurmasdan bachadon bo'yinchasi kanali bachadon tanasi yoki shoxi sig'adigan darajada ochiq turgan paytda ro'y beradi.

Bachadon chala tushganida hayvon bezovta bo'lib, tez-tez kuchanadi, qorin pressi (muskullari) qisqaradi, hayvon orqasini egib, dumini ko'tarib turadi, kuchaniq tutgan paytda oz-ozdan tezak va siydik ajraladi. Ayrim hayvonlarning darmonsizlanishi kuzatiladi (sigirlar kavsh qaytarmaydi, ishtahasi yo'qoladi va hokazo). Biyalarda bunday paytda sanchiqlar paydo bo'ladi. Bachadonning chala tushishi ichki tekshirish usuli bilan aniqlanadi. Bunda qo'l bilan paypaslab bachadonning ag'darilib chiqqan qismi topiladi. Bachadonning to'la tushishi ko'p uchraydi. Bunday paytlarda jinsiy yoriqdan sakrash bo'g'imlarigacha osilib tushadi. Tashqariga chiqqan bachadonning ko'pincha yo'ldosh qoldiqlari bilan qoplangan shilliq pardasi karunkulalari bilan tashqariga chiqib turadi.

Kavshovchi hayvonlarda tushgan bachadonni undagi karunkulariga qarab osongina aniqlasa bo'ladi. Biya bachadoni tushganda kapillar qon oqishi kuzatiladi. Cho'chqalarning tushgan bachadoni uzun ichak ko'rinishida bo'ladi. Diqqat bilan qaralsa, shilliq pardasida bir talay ko'ndalang burmalar borligini ko'rish mumkin.

Ag'darilib tushgan bachadon sernam, nisbatan yumshoq, och qizil rangda bo'ladi. Qonning to'xtab qolishi va shishishi tufayli u qattiq va to'q qizil bo'lib qoladi. Bir necha soatdan keyin ag'darilib chiqqan bachadonning yuzi qurib, yoriqlar bilan qoplanadi va qora kulrang, qora jigarrang tusga kiradi. Keyinchalik, nekroz sepsis bilan tugallanishi mumkin. Bunda hayvon yotgan bo'ladi, shuning uchun ag'darilib chiqqan bachadon ostiga kleyonka yoki choyshab solish kerak. Keyin dumg'aza qismida epidural anesteziya o'tkazilib, bachadonning bir qancha joyiga 0,5-1 sm chuqurlikda (sigirlarga 60 TB, mayda hayvonlarga 5-20 TB miqdorida) oksitosin yuboriladi. Bachadon vagotil (2%-li), achchiqtosh (3%-li), kaliy permanganat (1:5000), furasillin (1:500) eritmalari bilan yuviladi, bachadondagi jarohatlarga chok qo'yiladi, agar yorilgan yoki tirlalgan joylarga, hamda butun bachadon shilliq pardasiga Vishnevskiy malhami surtiladi yoki boshqa mikroblarga qarshi qo'llanadigan biror malham (emulsiya) surtiladi. Oksitosin inyeksiyasi qilinganidan keyin 5 daqiqa o'tgach, bachadon 30% qisqaradi, qattiqlashadi va yengil to'g'rilanadigan bo'ladi.

Ag'darilib chiqqan bachadon kuchli shishgan bo'lsa, u sterillangan 3%-li achchiqtosh yoki 2%-li vagotil eritmasi shimdirilgan keng bintlar bilan mahkam bog'lanadi. Bintlash ag'darilgan bachadon shoxlaridan boshlanib, jinsiy lablar tomon boriladi. Bachadonni to'g'rilab, o'rniga qo'yishdan oldin bintning bir qismi ochiladi, bachadonni ikki qo'l bilan ushlab, jinsiy lablarga yaqin qismi ko'tariladi va asta-sekin tos bo'shlig'iga yuboriladi. Keyin boshqa qismi ushlanib, binti ochilib sekinlik bilan u ham tos bo'shlig'i tomon yuboriladi. Bunda ayniqsa yordamchi bachadonni toza choyshab bilan jinsiy lablar balandligida saqlab turishi juda muhimdir. Bachadon o'rniga solingandan keyin uning bo'shlig'iga baliq moyi bilan trisillin, 1-2 ta ekzuter va boshqa antiseptik dorilar yuboriladi. Bachadonning qayta ag'darilib chiqish xavfi bo'lsa, dumg'aza qismida epidural anesteziya o'tkaziladi.

Qinga valiksimon yoki xaltachali choklar o'rnatiladi. Shishgan va jarohatlangan qismi ko'p bo'lsa bachadon amputasiya qilinadi.

Tug'ruqdan keyingi parez Hayvonlarning og'ir kechadigan o'tkir kasalligi bo'lib, tomoq, til, ichak va oyoqlarni falajlanishi, sezgisi yo'qolib qolishi bilan namoyon bo'ladi. Bu kasallik asosan sigirlarda, ba'zan echkilarda va juda kamdan-kam qo'y va cho'chqalarda uchraydi. Kasallik ko'pincha 5 yoshdan 9 yoshgacha bo'lgan sersut sigirlarda, ya'ni hayvon eng ko'p sut beradigan davrga yetgach paydo bo'ladi. Semiz hayvonni bo'g'ozlik oxirida kuchli oziqlar bilan ko'p boqish, kasallik kelib chiqishiga moyil qilib qo'yadi. Tuqqandan keyingi parezning konkret sababi aniqlangan emas. Gipoglikemiya nazariyasi bo'yicha oshqozon osti bezining zo'r berib ishlashi natijasida kasallik vaqtida qondagi qand miqdorining kamayib ketishi (gipoklikemiya) kuzatiladi. Oshqozon osti bezi faoliyatining kuyuvishi tug'ishdan keyingi parez kasalligini keltirib chiqadigan sabablardan biri.

Bundan tashqari bu kasallik qalqonsimon bezlar faoliyatining buzilishi va shu munosabat bilan qonda kalsiy tuzlarining kamayib ketishi (gipokalsiyemiya) ga bog'liq degan fikrlar bugungi kunda o'z tasdiqini topgan (.Kondraxin I.P va b., 2005).

Sigirlarda kasallikning dastlabki belgilari odatda hayvon tuqqanidan keyin 12-72 soat mobaynida paydo bo'ladi. Kasallik kamdan-kam hollarda tug'ishdan oldin, homilaning jinsiy yo'llaridan chiqish vaqtida, ayrim hollarda esa tuqqandan 4 kun va undan ham ko'proq vaqt o'tgandan keyin paydo bo'ladi. Kasallik hayvon ishtahasining pasayishi va kavsh qaytarmay qo'yishi bilan boshlanadi. Keyin sigir bir oz besaranjom bo'lib qoladi, og'irligini dam u oyog'iga, dam bu oyog'iga solib turadi, uning orqa tomoni bir oz silkinib, muskullari titraydi. Ba'zan esa kasallik hiyla qo'zg'alish bilan boshlanadi. Hayvon ma'rab, to'polon qiladi, ko'zlarini bir nuqtaga qadab turadi. Kasallikning bu dastlabki belgilari, odatda, juda qisqa vaqt davom etadi. Shu sababli cho'pon ko'pincha bularni sezmay qoladi.

Kasallik avj olishi bilan sigir yiqilib tushadi va turolmay qoladi. Ayni vaqtda sezuvchanlik yo'qoladi. Kasal sigirlar oyog'ini tanasi tagiga olib, boshini oldinga cho'zib yotadi, ayrim paytda (notipik shaklda) hayvon bo'yni «S» simon bukilgan

bo'ladi. Tipik shaklida hayvonning boshi boshqa holatga keltirib qo'yilsa, u yana avvalgi holatiga qaytadi. Ko'zning shox pardasi xira tortadi, qo'l tekkizib ko'rilganda sezmaydi yoki kam sezadi. Ko'z qorachiq-lari kengayib boradi. Tana harorati 35-36S gacha pasayadi, shoxlar asosida teri sovugan bo'ladi, ichaklarning qisqarishi kuzatilmaydi, siydik pufagi to'lib, siydik ajratilishi to'xtaydi. Keyinchalik yaqqol bilinadigan falajlanish belgilari paydo bo'ladi, hayvonning yarim ochiq og'zidan tili osilib turadi, terisi igna sanchilsa ham sezmaydi. Kasallikning qolgan belgilari (hayvonning zaiflanishi ishtahasining yo'qolishi, tana haroratining pasayishi va boshqalar) kamroq darajada ifodalanadi.

Kasallikni davolashda eng oddiy usullardan biri yelinga Evers yoki Belyayev va Orexovlarning apparatlari bilan havo yuborishdir. Sigir yelka-yon tomoniga qo'yilib suti sog'iladi, keyin so'rg'ichlari spirt shimdirilgan tampon bilan artiladi. Keyin ularning to'rtalasiga steril kateterlar yuborilib, yelin terisi qatlari yozilguncha va timpanik tovush paydo bo'lguncha asta-sekin havo beriladi. Shundan keyin havo chiqib ketmasligi uchun yelinlar 20-25 daqiqagacha doka yoki bint bilan bog'lanadi. Hayvon tuzalmasa, yelinga havo yuborish yana 8 soatdan keyin qaytariladi.

Z.S.Kirilov (1997) yelinga havo o'rniga shpris Jane orqali 500-2000 ml miqdorida sog'lom sigirlardan sog'ib olingan sut yuborishni tavsiya etadi. Havo va sut yuborilgandan keyin kasal hayvonning sag'risi bilan bel, orqa oyoqlari yaxshilab uqalanadi, keyin issiq qilib o'rab qo'yiladi. 3 soat mobaynida hayvon o'rnidan turmasa, terisi ostiga 20%-li kofein eritmasidan 15-20 ml, qon tomiri ichiga 10%-li kalsiy xlor eritmasidan 100 ml miqdorida va 40%-li glyukoza eritmasidan 300-400 ml yuboriladi.

Abuladze K.I., Danilevskiy V.M. va boshqalar (1988) sigirlarda tug'ruqdan keyingi parez kasalligini davolash uchun vena qon tomiri orqali 200-400 ml 10%-li kalsiy xlorid eritmasi, 200-250 ml 40%-li glyukoza eritmasini yuborish, teri ostiga 15-20 ml 20%-li magniy sulfat eritmasi va 2500000 XB ergokalsiferol (D vitamini) yuborishni tavsiya etadi

Yo'ldoshini yeb qo'yish. Hamma hayvonlarda yo'ldoshni yeb qo'yishga moyillik bor. Ular faqat o'z yo'ldoshlarini yeb qo'yishini qayd etish lozim. Biyalarda bu hol kamdan kam uchraydi. Sigirlar homila pardalarini hush ko'rib yeydi, shundan keyin ularda oshqozon-ichak kasalliklari ro'y beradi.

Qo'y va echkilarda homila pardalarini yeyishga moyillik sust ifodalangan. Cho'chqalar esa yo'ldoshini ishtaha bilan yeydi. Bu ularda oshqozon-ichak kasalliklarini keltirib chiqarmasada, ammo bolalarini yeb qo'yishga moyillik paydo qiladi. Go'shtxo'r hayvonlar ham yo'ldoshlarini yeb qo'yadi, bu narsa ularning sog'ligiga ta'sir yetmaydi.

Hayvonlar yo'ldosh yeishiga asosiy sabab ularda mineral moddalarning etishmasligi, gipovitaminozlarning bo'lmasligidir. Yo'ldoshini yeb qo'ygan hayvonda quyidagi o'zgarishlar paydo bo'ladi; gastroyenterit kasalligining belgilari, kavshovchilarda-timpaniya, yurak urishi va nafas olishi tezlashadi, ayrim hollarda harorati ko'tariladi, otlarda sanchiqlar kuzatiladi.

Tezagi qo'lansa hidli, sassiq bo'ladi, ba'zan ichi ketadi. Biyalar va kavshovchi hayvonlarni davolash maqsadida parhyez qilinadi. Surgi dorilaridan (glauber, ingliz tuzlari, kana kunjut moyi) foydalaniladi, shuningdek, tabiiy va sun'iy oshqozon shirasini qo'llash ham mumkin.

Kasallikning oldini olish uchun tug'ish vaqtida albatta navbatchilik tashkil etiladi. Navbatchi hayvonlarni kuzatadi. Ular kalta bog'lanishi va ajralib tushgan yo'ldosh darhol yig'ishtirib olinishi kerak. Xo'jalikda turli kasalliklar tarqalmasligi uchun ajratib olingan va tushgan yo'ldoshlar kuydirilib yo'qotilishi yoki yerga ko'milishi zarur.

Tug'ishdan keyingi infeksiyalar. Tug'ishdan keyin jinsiy yo'llarga turli mikroorganizmlar kirib, jinsiy a'zolarida og'ir kasalliklar paydo qiladi. Mikroorganizmlar jinsiy a'zolariga 2 yo'l bilan: ekzogen va endogen yo'l bilan kirishi mumkin.

Mikroorganizmlar jinsiy a'zolariga ekzogen yo'l bilan tug'ishga yordam bergan akusherning qo'llari, asboblari, iflos to'shama va boshqa buyumlar orqali tushadi.

Mikroorganizmlar jinsiy a'zolarga endogen yo'l bilan tug'ishdan ancha oldin tushadi. Ular bachadon yoki qinga kirib qolgan saprofit hisoblangan, organizmning himoya vositalari kasallanganda kasallik chaqirishga moyil bo'lgan mikroorganizmlardir.

Kasallik qo'zg'atuvchilarning organizmga kirishi va rivojlanishi uchun tug'ish vaqtida va undan keyingi davrda juda qulay sharoitlar vujudga keladi. Chunki jinsiy yo'llarning hamma joylarida bir talay jarohatlar paydo bo'ladi. Bundan tashqari, bachadondagi lohiyalar mikroorganizm-larning o'sishi uchun juda yaxshi oziq muhiti hisoblanadi. Har bir tug'ish organizmning himoya kuchlarini susaytirib qo'yishi sababli, kasallik qo'zg'atuvchilar bimalol rivojlanadi.

Jinsiy a'zolarining tug'ishdan keyingi kasalliklari turli mikroorganizmlarning ta'siri tufayli sodir bo'ladi. Jinsiy a'zolarida paydo bo'ladigan yallig'lanish jarayonlari joylashishiga ko'ra ular quyidagicha bo'ladi: 1) tug'ishdan keyingi vulvit; 2) tug'ishdan keyingi vestibulit; 3) tug'ishdan keyingi vaginit. Bu kasalliklarning asosiy sababi tug'ish paytidagi jinsiy yo'llar jarohati va ularga tashqaridan qo'l, asbob-uskunalar bilan mikroorganizmlarning tushishidir. Kasallik boshlanganda hayvon bezovtalanadi, belini kuchli bukadi, dumini ko'taradi. Siydik chiqarish kuchli og'riq bilan o'tadi. Tashqi jinsiy lablar shishadi. Paypaslaganda kuchli og'riq seziladi. Jinsiy lablarga tegilgan paytda hayvonning yotishi yoki yiqilishi kuzatiladi. Jinsiy yoriqdan suyuqlik oqadi, u hayvon dumi va sag'risiga yopishib, qurib po'stloq hosil qiladi. Qinning shilliq pardalarida ko'pincha kuchli qizarish, yara, eroziya qon quyilganligi ko'rinadi. Bu mahalliy o'zgarishlarga organizmning umumiy o'zgarishlari ham qo'shiladi.

Davolash maqsadida, birinchi navbatda, tashqi jinsiy a'zolar va dum toza yuvilishi kerak. Jinsiy lablarni qitiqlamasligi uchun dumni bint bilan o'rab, yon tomonga tortib qo'yish kerak. Qin dahlizi bo'shlig'i tozalanib, dezinfeksiyalovchi (kaliy permanganat, lizol, kreolin, biyalar uchun sulema) eritmalar bilan yuviladi. Bunday paytda 1-2%-li tuz-sodali (aa), yoki osh tuzining gipertonik (2-5%-li) eritmaları yaxshi samara beradi. Shuni esda tutish kerakki, qin dahlizini yuvish ayrim hollarda teskari natija beradi. Shunday bo'lmasligi uchun qin dahlizi

dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan yuvilganda jinsiy lablar ochiq bo'lishi va yuborilgan eritmalarining qaytib chiqishi uchun sharoit tug'dirish kerak. Dezinfeksiyalovchi eritmalar jinsiy yo'llarga bosim bilan yuborilishi kerak emas.

Jinsiy a'zo shilliq pardalari yuvilgandan keyin Vishnevskiy linimenti, streptosid emulsiyasi, yodoformli, kseroformli, kreolinli, ixtiolli malhamlar surtilishi kerak.

Kuchli og'riq paytida oddiy malhamlarga 1-2% dikain yoki novokain qo'shish tavsiya etiladi. Yara eroziyalar tozalangandan keyin lyapis yoki 5%-li yod eritmasi bilan kuydiriladi. Xuddi shunday maqsad bilan ixtiolli tamponlar ham qo'llanadi. Tamponlarni 12-24 soatdan keyin qayta qo'yish mumkin. Lekin tug'ishdan keyingi infeksiyani mahalliy jarayon deb bo'lmaydi, chunki bunda organizm patologik jarayonga tortiladi. Organizm himoya kuchining susayishi va idora etuvchi hamda moslashtiruvchi imkoniyatlarning izdan chiqishi umumiy kasallikni paydo qiladi. Bunday hollarda uchta umumiy yuqumli kasallik: sepsitemiya, piyemiya va septikopiyemiya kasalligi yuzaga keladi. Septisemiya - mahalliy yallig'lanish jarayonining asorati bo'lib, qonda mikroblar va ularning toksinlari borligi bilan namoyon bo'ladi. Bunda kasal hayvonning ahvoli og'irlasha boradi.

Piyemiya - mahalliy yallig'lanish jarayonining asorati bo'lib, qon tomirlarida tromblar vujudga keladi. Keyin shu tromblarning yiringlashi, turli a'zo va to'qimalarda emboliyalardan kelib chiqadigan metostatik abscesslar yuzaga kelishi bilan o'tadi.

Septikopiyemiya - mahalliy yallig'lanish jarayonining septisemiya ham piyemiyaga xos belgilari bilan o'tadigan asoratidir.

Fermer xo'jaliklari sharoitida sigirlarning bachadni kasalliklari orasida quyidagi turlari keng tarqalgan:

O'tkir endometrit Ko'pincha yo'ldoshni ushlanib qolishi oqibatida bachadon shilliq pardasining yallig'lanishi bo'lib, hamma turdagi hayvonlarda uchraydi va hayoti davomida yuzaga keladigan bepushtlikning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Yallig'lanish mahsulotlarning ta'sirida jinsiy hujayralar nobud bo'ladi yoki zigota fagositozga uchraydi.

Bachadon shilliq pardasining yallig‘lanishi natijasida tuxumdonlar ko‘pincha ikkilamchi tartibda shikastlanadi (sariq tana turib qoladi, follikulalar yorilmaydi, yallig‘lanishga uchraydi va h.k.) va follikullarning yetilishi izdan chiqadi.

O‘tkir endometrit giperemiya va bachadon shilliq pardasining shishi bilan kechadi. Giperemiyaning zo‘rayishi bilan tomirlarning ekstravaza-siyasi, ya‘ni qon zardobi va hatto, shaklli elementlarining tomirlar devori orqali bachadon hujayralari orasidagi bo‘shliqqa sizib chiqishi kuzatiladi.

Safiullov R.N. (2009) ma‘lumotlariga ko‘ra, Rossiyaning Ulyanovskiy oblastida sigirlar orasida ginekologik kasalliklardan to‘qqandan keyingi endometrit 36,71 %, tuxumdonlar kasalliklari – 25,54% sigirlarda, patologik va asoratli tug‘ishlar – 19,33 %, abortlar – 1,2 % hollarda qayd etiladi.

A.X.Maxmud ma‘lumotlariga (2005) ko‘ra, Iroq respublikasining “Ninava” hududida sigirlarning 22-24,5 foizida mineral moddalar almashinuvi buzilishlari kuzatilib, akusherlik kasalliklarining tarqalishiga sabab bo‘lmoqda. Bu kasalliklarning 15-30 foizini yo‘ldoshni ushlanib qolishi, 5-60 foizini tuqqandan keyingi endometritlar, 5-20 foizini bachadonning subinvalyusiyasi tashkil etadi.

Surunkali endometrit. Bu kasallik, odatda, o‘tkir endometrit oqibatida kelib chiqadi va endoteliyning kuchli o‘zgarishi hamda bachadon bezlarining kuchli sekresiyasi bilan kechadi. Ekssudatning xarakteriga ko‘ra, kataral, yiringli-kataral va yiringli surunkali endometritlar farqlanadi. Surunkali endometritlarda, ba‘zan bachadon bo‘ynining juda shishib ketishi tufayli ekssudat bachadon bo‘shlig‘ida to‘planib qoladi. Ekssudat suvga o‘xshagan suyuq bo‘lsa (kataral ekssudat) bachadon istisqosi (Gidrometra) deb ataladi. Bachadonda ko‘p miqdorda yiringli ekssudat to‘planganda piometra (Piometria) vujudga keladi. Yashirin o‘tadigan surunkali endometrit surunkali kataral endometritning bir turidir.

Yashirin surunkali endometrit. Kasal sigirlarda kuyikishlar orasidagi davrda klinik belgilar sezilmaydi va to‘g‘ri ichak orqali hamda qin orqali tekshirishda ham normadan tashqari o‘zgarishlarni topib bo‘lmaydi. Hayvon kuyikkan paytida esa bachadondan odatdagidan ko‘ra ko‘proq loyqalangan, ba‘zan yiringli ekssudat aralashgan suyuqlik chiqadi.

Biyalarda yashirin surunkali endometritda kuyikish belgilari yaxshi bilinmaydi va kuyikish vaqtida qinda o'lgan to'qimalar aralashgan loyqa, yopishqoq shilimshiq to'planib qoladi.

Urg'ochi hayvonlar muntazam kuyukib, urug'lantirilib turilsada, bo'g'oz bo'lmaydi. Shu xilda o'tadigan endometritda hayvonlarning qisir qolishi jinsiy yo'llarida spermatozoidlarning harakatiga to'sqinlik qiladigan shilimshiqning haddan tashqari ko'p bo'lishi hamda bachadondagi ekssudatining spermatozoidlarga o'ldiruvchi ta'sir etishi sababli kuzatiladi.

Surunkali kataral endometrit paytida bachadon shilliq pardasi chuqur o'zgarishlarga uchraydi. Shilliq parda yumshoqlashib, qalinlashadi, unda biriktiruvchi to'qima o'sadi, shilliq parda yuzasida esa eroziyalar paydo bo'ladi. Ba'zi joylarda bachadon bezlaridan tovuq tuxumidek keladigan kistalar vujudga keladi.

Kasallangan sigirlarda ko'p miqdorda va biyalarda juda oz tiniq suyuqlik oqadi, bu suyuqlik biroz ochiq turgan kanal orqali bachadondan qinga, keyin esa tashqariga ham oqib tushadi. Hayvon muntazam kuyukib turadi yoki kuyikish vaqti o'zgaradi.

Surunkali yiringli-kataral endometritda ham surunkali kataral endometritdagi belgilar xarakterlidir, biroq bachadondagi o'zgarishlar ancha keskin ifodalangan bo'ladi. Bu hol yiring hosil qiluvchi mikroorganizmlarning faoliyatiga bog'liq. Kasallangan sigirlar jinsiy lablar tekshirilganda ko'tarilib turganligi va jinsiy yoriq pastki burchakning junlarda jigarrang-sariq yiring qotmalari topiladi. Dumning ichki yuzasi ham ko'pincha shunday qotmalar bilan qoplangan bo'ladi. Jinsiy teshikdan yiring aralash shilimshiq keladi.

Kasal hayvonlarning umumiy ahvoli qoniqarli bo'lsada, hayvon holsizlanib, ozib ketadi, ishtahasi kamayadi, tana harorati ko'tariladi.

Surunkali yiringli endometrit ko'pincha sigirlarda va ba'zan boshqa hayvonlarda uchraydi. Surunkali yiringli endometritning uch shakli farqlanadi.

Birinchi shakli «oqma» deb ataladi va bachadon bo'yni kanali ochiq turganligi sababli doimo yiringli ekssudat chiqib turadi. Kasallikning bu turi bachadon involyusiyasining sekinlashishi tufayli kelib chiqadi.

Ikkinchi turida jinsiy yo'llardan vaqti-vaqti bilan yiringli ekssudat kelib turadi. Bunga bachadon shilliq pardasining shishib ketishi va bo'yni kanalining vaqtincha bekilib qolishi va bachadon devori muskullari tonusining pasayishi sabab bo'ladi. Yiringli ekssudat bachadon bo'shlig'ida to'planib boradi va hayvon tanasining vaziyatini o'zgartirganidagina (masalan yotganda) qin orqali oqib chiqadi.

Uchinchi shaklida bachadon bo'yni kanali zich bekilib turgani uchun yiringli ekssudat bachadondan tashqariga oqib chiqmaydi. Endometritning bu turi hayvonda trixomonoz yoki homilani rivojlanishining ilk davrida o'lib qolishi paytlarda vujudga keladi.

Yiringli endometritning piometra deb ataladigan ikki shakli tug'ish vaqtida bachadon bo'yni kanalining shikastlanib, keyin bitib ketishi natijasida, hayvon qarib, bachadon devori muskullarining atrofiyaga uchrashi yoki o'smalar vujudga kelishi tufayli va ba'zan ikkilamchi kasallik tarzida yuzaga keladi.

Parametrit deyilganda qin atrofidagi tos klechatkasi bilan bachadon tutqichlarining yallig'lanishi tushuniladi.

Parametrit odatda bachadonning o'tkir yallig'lanishi natijasida, ba'zan yallig'lanishning ichak va qorin pardasidan o'tishi natijasida vujudga keladi. Mikroorganizmlar bachadondan asosan qon va limfa yo'llari orqali atrof to'qimalarga o'tadi. Ko'pincha abscesslar paydo bo'ladi.

Kasal hayvonda tana haroratining ko'tarilishi, hayvonning bukchayib turishi, tez-tez kuchanish, defekasiya va siydik ajratish vaqtida og'riq sezish kuzatiladi. To'g'ri ichak va qin orqali tekshirishda hayvon juda bezovtalanadi, bachadonning shikastlangan devorlari va tutqichlari qo'lga qalin tortgan va shishgan bo'lib seziladi, ba'zan abscesslar topiladi.

Bachadon atoniyasi. Bachadon tug'uruqdan keyin asta-sekin qisqarib, bo'g'ozlikdan oldingi holatiga kelib, ritmik qisqarib va bo'shashib turadi. Bachadon tonusini yo'qotib, taranglashsa, qisman yoki batamom qisqarmasa, bunday kasallik

bachadon atoniyasi deb ataladi. Bachadonning funksional va organik atoniyasi mavjud. Funksional kasallikda bachadon vaqtincha, organik atoniyada esa u uzoq vaqt va hatto, butunlay qisqara olmaydigan bo'lib qoladi.

Sabablari. Bachadonning funksional atoniyasi molning yaxshi boqilmasligi va yayratishga olib chiqilmasligi oqibatida kelib chiqadi. Ko'p homilali bo'g'ozlik, homilaning yirik bo'lishi, homila pardalarining suvga to'lishi bachadonning haddan tashqari cho'zilib ketishi va boshqalar atoniyaga sabab bo'ladi. Biyalarda bu kasallik ularni haddan tashqari ko'p ishlatganda paydo bo'ladi. Bachadonning organik atoniyasi og'ir yiringli yallig'lanish natijasida kelib chiqadi. Yallig'lanish oqibatida bachadonning muskulli qavatida sezuvchi va harakatlantiruvchi nerv uchlari ishdan chiqadi. Atoniya qari hayvonlarda ko'p uchraydi.

Bachadonning atoniyasiga xos klinik belgilar (bo'g'ozmas holatida) sezilmaydi. Tug'uruqdan keyingi davrda bu belgilar juda sust seziladi. Mol tik turgan bo'lsa, loxiylar kelmaydi va mol yotganida vaqt-vaqti bilan oqib tushadi.

Qin orqali tekshirishda bachadon bo'yni kindik qismini shishib turganligi topiladi; bachadon bo'ynining kanali biroz ochiq turadi. To'g'ri ichak orqali tekshirishda qo'l bilan ancha massaj qilingandan keyin ham bachadonning ilvillab turgani, tarangmasligi yoki sal-pal tarangligi bilinadi.

Davolash. Kasallik sabablarini bartaraf etish. Bachadonni to'g'ri ichak orqali kunora 5 daqiqadan massaj qilish yaxshi natija beradi. Davolash kursi atoniya darajasiga qarab, har xil, lekin kamida 10 kun bo'ladi. Bundan tashqari, bachadonning qisqarishiga yordam beruvchi 5-10% li osh tuzi eritmasidan bachadonga har 3 kunda yuborib turish tavsiya etiladi. Tuz eritmasi issiq (43°C) va sovuq holda (20°C ga yaqin) galma-gal yuboriladi. Tuz eritmasi yuborilgandan keyin suyuqlikni chiqarib tashlash uchun bachadon orqa ichak orqali massaj qilinadi (Akatov V.A., 1988).

Varganov A.I.va boshqalar bachadon kasalliklarida biogel – 10 preparatidan foydalanishni tavsiya etadi.

Bachadon shilimshiq pardasining yallig'lanishi (o'tkir endometrit) uy hayvonlarining hamma turlarida juda ko'p uchraydi va hayot davomida yuzaga

keladigan bepushtlikning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Yallig'lanishda hosil bo'ladigan mahsulotlarning zararli ta'siri natijasida jinsiy xujayralar nobud bo'ladi yoki zigota fagositozga uchraydi. Bachadon shilimshiq pardasining yallig'lanishi natijasida, ko'pincha, tuxumdonlar ikkilamchi tartibda shikastlanadi (sariq tana turib qoladi, follikulalar yorilmaydi, yallig'lanish uchraydi va h.k.), bunda follikullar yetilmay qoladi.

O'tkir endometritda qizarish yoyilgan bo'ladi va bachadon shilimshiq pardasi shishadi. Qizarish zo'rayishi bilan keyinchalik ekstravazasiya sodir bo'ladi, ya'ni qon zardobi va hatto, qonning shaklli elementlari tomirlar devoir orqali bachadon xujayralari orasidagi bo'shliqqa sizib chiqadi.

Bachadon shilimshiq pardasi ko'pincha, mikroorganizmlar (streptokokklar, stafilokokklar, ichak tayoqchasi va boshqalar)ning to'g'ridan-to'g'ri unga tushishidan yoki qindan o'tishidan yallig'lanishi mumkin. Bundan tashqari, mikroblar bachadonga ba'zan qon tomirlari orqali o'tadi.

Potologik tug'uruqlarda bachadonning jarohatlanishi, ajralmagan homila pardalarining chirishi, tug'uruqdan keyin bachadonning sekinlik bilan involyusiya qilishi (bachadon atoniyasi) endometrit paydo bo'lishiga olib keladi. Mol noto'g'ri asralsa, yomon boqilsa, oziqa tarkibida vitaminlar yetarli bo'lmasa, mineral oziqlar berilmasa va yetarlicha kezishga olib chiqilmasa, unda tug'uruqdan keyin bachadon ko'pincha, sekin involyusiyaga uchraydi.

Molni sun'iy urug'lantirishda sperma antiseptika qoidalariga rioya qilmasdan yuboriladigan bo'lsa, shuningdek, kasal mollarni qochirgan erkak mol sog' mollarga ham qo'yilsa, jinsiy yo'llarga infeksiya yuqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bachadon shilimshiq pardasining yallig'lanishi sirtdan mahalliy jarayon tarzida o'tadi. Lekin organizmning tashqi ta'sirga qarshiligi kamayganda, qon tomirlari va limfa sistemasiga mikroblar kirganida umumiy kasallik sepsis (septimesiya, piyemiya) vujudga keladi.

Vaginal tekshirishda bachadon bo'ynining shilimshiq pardasi tiqinga o'xshab do'ppayib turgan, qizargan va bir oz bo'rtgan bo'ladi, bachadon bo'yni kanali ochiq turadi; qin tubida yig'ilib qolgan ekssudat topiladi. Kataral endometritda ekssudat

xira, kul rang va yopishqoq, yiringli endometritda esa sarg'ish rangli, ba'zan qo'lansa hidli bo'ladi.

Endometrit bilan og'rigan mollarga antibiotiklar: (penisillin, streptomisin, biomisin, tetrasiklin, eritromisin va boshqalar) buyuriladi. Penisillin ko'pincha, streptomisin va biomisin bilan birga qo'shib beriladi. Penisillin dozalari (molning 1 kg tirik vazniga ming TB hisobida): otlarga - 1-2, qoramollarga - 2-3, qo'ylarga - 4-10, cho'chqalarga - 2-3 hisobida muskullar orasiga yoki teri ostiga yuboriladi.

Kasal molning ahvoliga qarab, uning harorati pasayguncha va ahvoli ancha yaxshilanguncha, har 3-6 soatda ukol qilib turiladi. Shundan keyin ham 8-12 soatdan so'ng, yana 2-3 ukol qilinadi. Streptomisinni muskullar orasiga yuborish uchun steril fiziologik eritmada eritiladi. Streptomisinning o'rtacha sutkalik dozasi qoramol uchun 1 g - 100 ming TB (500 ming TB dan kuniga ikki mahal). Kristall biomisin kuniga ikki mahal 0,8-2 g dan ichiriladi. Biomisin shakarga (50,0-100,0 hisobida) aralashtirib suvda eritiladi (1 ml suvda 10- 13 mg biomisin eriydi), shundan keyin rezinkali shishada molga ichiriladi. Antibiotiklar, odatda, kasallikning boshida beriladi va kasallik o'tib tana harorati normaga kelganidan keyin ham 3-4 kun davomida berilib boriladi. Antibiotiklar bachadon ichiga ham yuboriladi. Mikroblar antibiotiklarga chidamli bo'lsa, sulfanilamid preparatlar: sulfidin, sulfazol, sulfasil va norsulfazol ishlatish kerak. Davolash juda yaxshi natija berishi uchun preparatlar 2-3 kun davomida kuniga 1-2 martadan ichiriladi. Mazkur preparatlar kam dozada berilsa, davo naf bermaydi, mikroblar esa sulfanilamidga chidamli bo'lib qoladi. Sulfanilamid bilan davolashda yaqin kunlarda natija bermasa, bu holda boshqa davo vositalari bilan almashtirish kerak. Sulfanilamid suvda eritiladi yoki chayqatib-chayqatib ulardan suspenziya tayyorlanadi (preparatning bir qismi erimay qolgan bo'lsa) va og'zidan ichiriladi.

Sulfidin, sulfazol va sulfasil dozalari: ot va qoramol uchun - 3,0-10,0, qo'y va echkilar uchun - 1,0-3,0, cho'chqalar uchun - 0,5-2,0; norsulfazol molning 1kg tirik vazniga 0,02-0,05 hisobidan beriladi. Ko'rsatib o'tilgan dozalar davolashning birinchi kuni beriladi, ikkinchi kundan boshlab, $\frac{1}{4}$ hisobidan kamaytirib boriladi. Hayvon shu preparatlar bilan davolanganda suv kamroq beriladi.

O'tkir endometritlarda umumiy davolash bilan birga bachadon qisqarishini kuchaytirish va bachadon bo'shlig'ini ekssudatdan bo'shatishga qaratilgan davolash tadbirlarini ham ko'rish zarur. Bachadonni yuviib, ekssudatni chiqarib tashlash yaxshi naf beradi. Bachadonni chayish uchun quyidagi eritmalar: rivanol, xinozol, tripavlivin yoki akriflavin eritmalari (1:1000), kaliy permanganat eritmasi (1:1000), soda eritmasi (1-2% li), osh tuzi (1 va 3-10% li), sut kislota (0,5% li), borat kislota (2-3% li), ixtiol (3% li), tanin eritmasi (0,5% li) va boshqalar ishlatiladi.

Eritmalar 40°C gacha ilitib ishlatiladi. Bachadondan patalogik ajratmalari ko'rinmaydigan eritma oqib chiqmaguncha u yuvilaveradi. Bir marta chayish uchun yallig'lanish jarayonining xili va darajasiga qarab 2l dan 10l gacha dezinfeksiyalovchi eritma ishlatiladi. Bachadon ekssudatning to'planishiga qarab, har kuni yoki kun ora chayiladi. Ajratmalar ancha kamayib qolgandan keyin uch-to'rt kunda bir marta chayilsa bo'ladi. Chayish vaqtida yuborilgan eritmaning hammasini bachadondan chiqarib tashlash zarur. Bachadonni yuvishdan oldin irrigator yoki maxsus nasos bilan bo'shlig'idan yallig'lanish ekssudatini tortib olish tavsiya etiladi.

Bachadondan ekssudatni chiqarib tashlashga yordam beradigan, uning qisqarishini kuchaytiradigan boshqa davo usullaridan ozokerit, parafin, applikasiyalarining qo'yishni, balchiq bilan davolash va bachadonni massaj qilishni aytib o'tish zarur. Yaqingina qon quyilganda, gematoma bo'lganda, yirik qon tomirlarining trombozida, barcha yiringli va yallig'lanish jarayonlarida hamda yomon sifatli o'smalarda bachadonni massaj qilish yaramaydi. Barmoqlarning yumshoq joyi bilan silab, massaj qilinadi. Limfa va vena tomirlari bo'ylab, ya'ni shoxlarining uchidan bo'yniga qarab, 3-5 daqiqa davomida massaj qilib boriladi. Bachadonning qisqarishi uchun teri ostiga pituitrin, pregnantol yoki qoramiq ekstrakti yuboriladi (yirik mollarga 5-10 ml).

A.A.Limarenko (1999) ma'lumotiga ko'ra endometritlarni davolash uchun gormonal va neytrotrop preparatlar: sinestrol, stilbestrol, karboxolin, prozerin va boshqalar ishlatiladi. Sinestrolning o'simlik moyi yoki spirtidagi 1% li eritmasi 3-5 ml dan 24 soat oralatib, 3-4 marta teri ostiga yuboriladi; stilbestrol 1,5-2,5 ml dan

ishlatiladi. Neytrotrop preparatlar katta yoshdagi yirik qoramolga 0,1%-li karboxolin eritmasidan 2-3 ml, 0,5%-li prozerinning suvdagi eritmasidan 2-3 ml teri ostiga yuboriladi.

To'qima preparatlari yordamida davolash yaxshi natija beradi (G.I.Pronin, 1998). Ko'chirib o'tkazish uchun sigir yoki cho'chqa tuxumdoni, buqachalar, yosh erkak cho'chqa, taka yoki qo'chqorlar urug'donining to'qimasi yoki sigir tuqqan paytidagi amnion to'qimasi ishlatiladi. Amnion quyidagicha tayyorlanadi: avval vodoprovod suviga tutib yuviladi, so'ngra parrak-parrak qilib kesilib, 1% li osh tuzi eritmasida yuviladi va 2% li xloramin eritmasiga solinib, 2°C dan 4°C gacha haroratda 8 sutka saqlanadi. Saqlash paytida xloramin eritmasi birinchi sutkada 2 marta keyinchalik har 24 soatda almashtirib turiladi. Urug'don va tuxumdonlarning to'qimasi avval 1% li osh tuzida 30-40 daqiqa saqlanadi, keyin 2% li xloramin eritmasiga solinib, amnion to'qimasi qancha muddat saqlanadigan bo'lsa, bu eritmada ham xuddi shuncha muddat saqlanadi. To'qima sakkiz kecha-kunduz saqlanganidan keyin bo'yin sohasining o'rtadagi uchdan bir qismiga bo'yin qirrasidan 8-10 sm pastroq teri ostida o'tkaziladi. Buning uchun teri kesilib, teri osti klechatkasi ochiladi, keyin skalpel tig'i bilan teri osti klechatkasi qirqiladi va xaltacha hosil bo'ladigan qilib, o'tmas uchi bilan fassiyalardan ajratiladi. Ko'chirib o'tkazish uchun tayyorlab qo'yilgan amnion to'qimasi va tuxumdon bilan urug'don bo'lagi sterillangan pinset bilan xaltachaga solinadi va jarohat chetlari choklab qo'yiladi, choklar 9-10- kuni olib tashlanadi.

Endometritda (o'tkir va surunkali), xuddi vaginit va salpingitlarda qilinganidek, biostimulgin - to'qima preparati ishlatiladi. Biostimulgin bo'yin sohasining terisi ostiga 30 ml dan bir gal o'ng tomondan va bir gal chap tomondan quyidagicha yuboriladi: birinchi uch kunda kuniga bir martadan, keyin kunora ikki-uch marta va so'ngra, mol tuzalib ketguncha, 2 kun oralatib 1 martadan inyeksiya qilib turiladi.

II.2 Sigirlarda yo'ldoshni ushlanib qolishi va uning oqibatida kuzatiladigan endometritlarni davolash va oldini olish

Homila pardalari bachadonda yuqorida aytilgan vaqtdan ko'proq saqlanib qolsa, bu yo'ldoshning saqlanib qolish kasalligi hisoblanadi. Bu, ko'pincha kavshovchi hayvonlarda va asosan sigirlarda, ba'zan biyalarda va kamdan-kam holda go'shtxo'r hayvonlarda uchraydi. Yo'ldoshni agar o'zi tabiiy holda tushmasa sigirlarda homila tug'ilgandan 24-28 soatdan keyin, biyalarda 2 soatdan keyin, qo'y va echkilarda 5, cho'chqa, it, mushuk va quyonlarda 3 soatdan keyin qo'l bilan ajratib olinadi.

Yo'ldoshning o'z vaqtida ajralmasligiga bachadonning yetarli qisqarmasligi, (bunday hol egizak homilada, ayniqsa sigirlarda), homila pardalari orasiga haddan tashqari ko'p suyuqliklar to'planishi, katta homila tufayli bachadonning cho'zilib ketishi sabab bo'ladi. Shuningdek, kuchaniq va to'lg'oq kuchsiz bo'lganida ham yo'ldosh ajralib qoladi. Yo'ldoshning ajralmay qolishi va hayvonlarni yaxshilab boqmaslik, yoki aksincha, hayvonlar juda semirib ketganida ham kuzatiladi. Bundan tashqari, oziq rasionida vitaminlar va mineral tuzlar etishmasligi ham yo'ldoshning o'z vaqtida ajralmasligiga sabab bo'ladi.

Hayvonlar molxonada bog'lab boqilganida ularga matsion yetarli bo'lmaganligi uchun bachadon bo'shashib qoladi (atoniya) va bu holat yo'ldoshning ushlanib qolishiga olib keladi. Yo'ldoshning ajralmasligiga hayvonning bo'g'ozlik davrida bachadonda paydo bo'ladigan yallig'lanish jarayonlari ham sabab bo'lishi mumkin. Bunda shilliq parda shishadi, natijada so'rg'ichlar korunkalarga tutilib qoladi va kuchaniq, to'lg'oq zo'rayganda ham ular ajralavermaydi. Yo'ldosh yallig'langanda ham xorion parda so'rg'ichlari shishib ketadi, bu esa ularning bachadon shilliq pardasiga mahkamroq yopishib qolishiga sabab bo'ladi.

Ba'zan bachadon bo'yinchasi yo'lining vaqtidan oldin yopilib qolishi yoki bo'g'ozlik rivojlanmagan bachadon shoxi haddan tashqari kuchli qisqarganda, homila pardalarining shu shoxda qisilib qolishi tufayli ham yo'ldosh ajralmay

qoladi. Yo'ldoshning saqlanib qolishini aniqlash qiyin emas, chunki u ko'pincha har xil uzunlikdagi ko'rinishida jinsiy yoriqdan osilib turadi.

Yo'ldoshning saqlanib qolishi uch xil: to'liq, noto'liq va qisman bo'ladi. Yo'ldoshning osilib turgan qismi sakrash bo'g'inlarigacha ba'zan hatto yergacha tushib tursa, bu qisman ushlanib qolishi bo'ladi. Bunda xorion parda bachadonga bir necha karunkulalar bilan tutashgan bo'ladi. Yo'ldoshning hammasi jinsiy yo'llarda turgan bo'lsa, (bu, kamdan kam uchraydi), xorion parda bachadonning har ikkala shoxida karunkulalarga tutashgan bo'lsa, bu to'liq ushlanish deyiladi, bunday paytda diagnoz anamnez va ichki tekshirishlar natijasida qo'yiladi. Agar yo'ldosh bachadonning bitta shoxida ushlanib qolsa, unda noto'liq ushlanish deyiladi. Sigirlarda yo'ldoshning saqlanib qolishi ko'pincha noto'liq, qisman bo'ladi. Bu vaqtda homila pardalari jinsiy yorug'likdan osilib turadi. Yo'ldosh saqlanib qolganida, jinsiy lablar shishib ketadi, ular odatda ko'kimtir qo'ng'ir rangli tezak bilan ifloslanadi. Kasal hayvon hadeb dumini likkilataverishidan dumning ichki tomoni, orqa oyoqlar tezak bilan ifloslanadi.

Patologik tug'ishlarda yo'ldoshni ushlanib qolishi, bachadonning jarohatlanishi, ajralmay qolgan homila pardalarining chirishi, bachadon involyusiyasining sekinlik bilan (bachadon atoniyasi) kechishi endometritga sabab bo'ladi. Hayvonlarni noto'g'ri asrash va parvarishlash, oziqalar tarkibida vitaminlar va mineral moddalar yetishmasligi va masionning yetarlicha bo'lmasligi oqibatida ko'pincha bachadonning involyusiyasi (subinvalyusiya) sekinlashadi.

Hayvonni sun'iy urug'lantirishda aseptika va antiseptika qoidalariga rioya qilinmasligi, shuningdek, kasal hayvonlarni urug'lantirgan erkak hayvon urug'lantirganda ham jinsiy yo'llarga infeksiya tushishi mumkin.

Koba .I.S (2009) ma'lumotlariga ko'ra, Krasnodar o'lkasida sigirlarning yo'ldoshni ushlanib qolishi oqibatidagi ikkilamchi o'tkir endometritlari keng tarqalgan kasalliklardan biri bo'lib, tuqqan sigirlarning o'rtacha 46,0% ida qayd etiladi. Yangi tuqqan sigirlarda bachadonning yallig'lanishlarining turlari quyidagicha uchraydi: kataral endometrit - 20,9%; kataral-yiringli - 60,0%; fibrinoz endometrit - 12,1%; nekrotik endometritlar -6,9% sigirlarda qayd etilgan.

Sigirlarning o'tkir endometritlari yilning fasllari bo'yicha o'rganilganda qish-erta bohor fasllarida 67,3%, yoz faslida esa 21,9% sigirlarda qayd etilgan. Oqibatda sigirlarning otalanishi o'rtacha 47 kunga kechikkan, otalanish indeksining 1,2 martaga ko'payishi kuzatilgan.

Kasallangan sigirlarda tuqqandan keyin otalanish muddati o'rtacha 156 kunni tashkil etib, sog'lom sigirlarga nisbatan 87 kunga ko'p bo'lgan.

.Koba I.S (2009) ma'lumotlariga ko'ra, tuqqandan keyin o'tkir endometrit bilan kasallangan sigirlar bachadonidan olingan suyuqlik tarkibidagi mikrofloralar o'rganilganda, zamburug'larning mikroorga-nizmlar bilan quyidagi asosiasiyalari ajratilgan: *Str. piogenes* + *P. vulgaris* + *Candida albicans* – 22,8%, *Stap. aureus* + *E. coli* + *Candida albicans* – 22,8%, *Stap. aureus* + *P. mipabilis* + *Candida albicans* – 20%, *E. coli* + *P. mipabilis* + *Candida albicans* – 11,4%, *E. coli* + *P. vulgaris* + *Candida albicans* + *Aspirgillus fumigatus* – 8,5%, *Stap. aureus* + *E. coli* + *Candida albicans* + *Aspirgillus fumigatus* – 8,5%, *Stap. aureus* + *P. mirabilis* + *E. coli* + *Candida albicans* + *Aspirgillus fumigatus* + *Mucor rasemocuc* – 5,7%.

O'tkir endometrit bilan sigirlarning kasallanishi tuqqandan keyingi 1-8 sutkaga, bachadon subinvalyusiyasi rivojlanganda 9-14 kunlarida qayd etilgan.

Surunkali yiringli endometrit ko'pincha sigirlarda va ba'zan boshqa hayvonlarda uchraydi. Surunkali yiringli endometritning uch shakli farqlanadi.

Birinchi shakli «oqma» deb ataladi va bachadon bo'yni kanali ochiq turganligi sababli doimo yiringli ekssudat chiqib turadi. Kasallikning bu turi bachadon involyusiyasining sekinlashishi tufayli kelib chiqadi.

Ikkinchi turida jinsiy yo'llardan vaqti-vaqti bilan yiringli ekssudat kelib turadi. Bunga bachadon shilliq pardasining shishib ketishi va bo'yni kanalining vaqtincha bekilib qolishi va bachadon devori muskullari tonusining pasayishi sabab bo'ladi. Yiringli ekssudat bachadon bo'shlig'ida to'planib boradi va hayvon tanasining vaziyatini o'zgartirganidagina (masalan yotganda) qin orqali oqib chiqadi.

Uchinchi shaklida bachadon bo'yni kanali zich bekilib turgani uchun yiringli ekssudat bachadondan tashqariga oqib chiqmaydi. Endometritning bu turi hayvonda

trixomonoz yoki homilani rivojlanishining ilk davrida o'lib qolishi paytlarda vujudga keladi.

Yiringli endometritning piometra deb ataladigan ikki shakli tug'ish vaqtida bachadon bo'yni kanalining shikastlanib, keyin bitib ketishi natijasida, hayvon qarib, bachadon devori muskullarining atrofiyaga uchrashi yoki o'smalar vujudga kelishi tufayli va ba'zan ikkilamchi kasallik tarzida yuzaga keladi.

Surunkali yiringli endometritlarning diagnostikasi. Oqma shaklida ba'zan qo'lansa hidli chirigan ekssudat doim jinsiy lablar atrofidagi teri va dumning ichki yuzasini ifloslantirib turadi. Kasal hayvon to'g'ri ichak orqali tekshirilganda yetarli qisqarmagan va zich bo'lib turgan bachadon topiladi.

Qin orqali tekshirishda bachadon bo'yni kanalining ochiq turganligi va undan yiringli ekssudat kelayotgani ma'lum bo'ladi. Tiqinga o'xshash bo'rtib chiqib turgan bachadon bo'yni shishgan va qizargan. Qinda hamisha yiringli ekssudat bo'lib, mikroskopda tekshirib ko'rilganda streptokokk va diplokokklar topiladi. Piometrada hayvonning kuyga kelmasligi va jinsiy yo'llardan vaqti-vaqti bilan yiringli ekssudat oqishi asosiy belgi hisoblanadi.

Sigirlarning tuqqandan keyin o'tkir endometrit bilan kasallanishiga organizmda immun tizimni zaiflashuvi, oqibatda qondagi leykositlarni $2,1 \times 10^{12}/l$ va limfositlarni 4,1% ga ortishi, segmentyadroli neytrofillar sonining 7% ga kamayishi, neytrofillar fagositlar faolligi va fagositlar sonining o'rtacha 15,9 i 0,9% ga kamayishi, hamda T va B limfositlarni 13,8 va 11,6 foizga kamayishi xarakterli bo'lgan.

Koba I.S. (2003, 2009) ma'lumotlariga ko'ra, sigirlarning o'tkir endometritlar bilan kasallanishida birlamchi omillardan yo'ldoshni ushlanib qolishi bo'lsa, ikkilamchi omillar faol masionning yetishmasligi, hisoblanadi, chunki sigirlar uzoq muddat bir joyda saqlanganda faqatgina 36,4% sigirlarda tuqqandan keyingi davrning me'yorida kechishi kuzatilgan bo'lsa, sigirlarning 40,0% ida bachadonning turli darajada yallig'lanishlari qayd etilgan. Shundan 50,0% sigirlarda o'tkir endometrit, 28,5% sigirda tuxumdonlar funksiyasining buzilishlari kuzatilgan.

O'tkir endometritlar bilan kasallangan sigirlarda tana haroratini 91% sigirlarda 0,5-1⁰C gacha ko'tarilishi, yurak urishini sog'lom sigirlarga nisbatan 1 daqiqada 10-15 martagacha tezlashishi xarakterli bo'lgan. Shuningdek, o'tkir endometrit bilan kasallangan sigirlar qin shilliq pardasini oq shilimshiq suyuqlik qoplashi kuzatilgan.

Sigirlarda yo'ldoshni ushlanib qolishi va uning oqibatidagi endometritlarni davolash va oldini olish

Sigirlarda yo'ldoshni ushlanib qolishi oqibatida ko'pincha endometritlar rivojlanadi. Ginekologik kasalliklarni davolashning barcha usullari veterinariya-sanitariya hamda zootexnika qoidalariga, ya'ni sifatli oziqlar bilan oziqlantirish, quruq, toza molxonalarda asrash, kasallikning kechishiga ko'ra ratsion berish va boshqa gigiyena talablariga to'la amal qilgan holda olib borilishi kerak.

Biologik va farmakologik dorilar bachadonga, teri ostiga muskul orasiga, qon tomir ichiga yuboriladi, ko'pincha ular etiotrop davolash usullarida ishlatiladi. Bu dorilar mahalliy, ya'ni qinga va bachadon bo'yinchasiga yuborilishi, bachadonga quyilishi ham mumkin yoki doka tamponlar shular bilan namlanib, yallig'langan joyga ishlatiladi.

Sh.B.Ata-Kurbanov, B.M Eshburiyevlarning (2009) fikricha, bo'g'oz sigirlarni tug'ishiga 2 oy qolgan davridan boshlab tug'ishigacha (kuz, qish va bahor oylarida) kayod tabletkasidan haftada 7 tabletka (asosiy moddadan 42 mg) omixta yemiga qo'shib berilganda va shu bilan bir vaqtda muskul orasiga 5 ml iliq tetravit yuborilishi modda almashunuvlarining yaxshilanishi, qonda umumiy oqsil miqdorini o'rtacha 7,4%, kalsiy 10,6 mg% anorganik fosfor 6,0 mg% ga ko'payishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, jinsiy a'zolar involyusiyasi tezlashadi, buzoqlarning hayotchanligi oshadi, ularning tirik vazni 1-3 kg ko'payadi, homila yo'ldoshi o'z vaqtida ajraladi, tuqqandan keyingi endometritlar kamayadi.

Yo'ldoshni ajratishdan keyin qin va bachadonni yuvishda kuchsiz antiseptik eritmalaridan u yerdagi yallig'lanish mahsuloti bo'lgan eksudatlarni tashqariga chiqarish uchun foydalaniladi. Eritma iliq holda ko'pincha suyuqlik ikkiyoqlama oqadigan kateter yordamida yuboriladi.

Sigirni stanokka kiritib, eritma solingan idish maxsus tergakka quyiladi va undagi eritmadan asta-sekinlik bilan qinga 20-30 l quyiladi. Sigirlarni piometrit, gidrometrit kasalliklarida bachadon bo'shlig'ida to'plangan eksudatlarni chayib chiqarish uchun o'rta tuzlarning 2-10%-li eritmasidan foydalaniladi. Bachadonga yuborilgan suyuqlik massaj orqali to'la chiqarib olinadi. Bundan keyin qinning bachadon bo'yinchasiga yaqin tomoniga davolovchi eritmalar shimdirilgan, emulsiyalar surtilgan, poroshok sepilgan paxta yoki doka-paxtali tamponlar qo'yiladi. Bunday tamponlar bachadon bo'yinchasi yallig'langanda ham ishlatiladi.

Bachadonga dorilarni qo'yishda antiseptik eritmalaridan kamroq foydalaniladi; ulardan 500 ml gacha yuborish mumkin. Odatda, bachadonga turli suspenziyalar, moyli asosda (baliq, vazelin moylari) tayyorlangan emulsiyalar yuboriladi, 5%-li trisillin suspenziyasi, 5%-li yodvismutsulfamid suspenziyasi, ginekologik (furazolidonli, furaginli xinozoli va boshqalar) suppozitorlar, 2,5%-li furagin va 5%-li furazilidon, o'zimizda va chet yelda tayyorlangan patentli dorilar, tarkibida nitratfuran saqllovchi dorilar va antibiotiklar (ekzuter, septrometrin, tribressin, uterosan va boshqa) dorilardan foydalaniladi.

Bu dorilar bachadonga yuborilganda ko'pik hosil qiladi, bu, dorini bachadonning barcha qismiga oson o'tishiga yordam beradi. Dorilarning yuborish miqdori 50-100 ml yoki 2-5 kapsula yoki tayoqcha hisobida bo'ladi. Bu usul bilan birgalikda bachadon muskullarning qisqarishini oshiradigan (ayniqsa, uni atoniyasi va gipotaniyasida) dorilarni parentirial yuborib davolash ham maqsadga muvofiqdir - bu borada muskul orasiga oksitosin va pituitrindan (30-40 TB) 1%-li brevikolin eritmasidan (10 ml), teri ostiga prozerinning 0,5%-li (2-3 ml) sinestrolning 1%-li eritmasini (2-4 ml) qo'llash mumkin. Bachadonning qisqarishini kuchaytirish uchun 7 yoki 10%-li ixtiolning 40%-li glukozadagi yoki fiziologik eritmadagi eritmasi 15-20 ml miqdorida, steril og'iz suti 20-30 ml miqdorida har 48 soat oralab 2-3 marotaba yuboriladi. Shuningdek, trivitamen, tetravit ham 5-10 ml miqdorida har 48 soat oralab 2-3 marotaba teri ostiga yuboriladi.

Lekin davolash natijasining ijobiy bo'lishini ta'minlash maqsadida, avval, bachadondagi ekssudat tarkibidagi mikroorganizmlar turi va ularning dorilarga bo'lgan chidamliligini aniqlash lozim.

Fizikaviy davolash usullari. Bunga uqalash, shifobaxsh moylar va elektr bilan davolash usullari kiradi. Uqalash to'g'ri ichakka yuborilgan barmoqlar orqali silash, bachadon shoxlarini va tuxumdonlarini ezish yo'li bilan olib boriladi.

Shifobaxsh loylar bilan davolashda turli tarkibdagi loylardan foydalaniladi. Shifobaxsh loylar dastlab qaynatilib sterillangan bo'lib, u qinga maxsus shpris yoki sun'iy qinda ishlatiladigan rezina kamera orqali yuboriladi.

Elektr toki bilan davolash endometritlarning turli shakllarida qo'llaniladigan bachadon bo'yinchasini stimullaydigan elektrostimulya-torlar yordamida o'tkaziladi. Bu asbob tana, qo'l birkirgich vtulka turli diametr va uzunlikdagi 6 ta olib qo'yuvchi uchli qismdan iborat bo'ladi. Ona hayvon rezina to'shama solingan stanokka kiritilib bog'lanadi. Elektr ostimulyatorni toka ulab, tok kuchlanishi 7 voltga to'g'rilanadi. Qin, qin oynasi bilan ochilib, elektrostimullyatorni mos keladigan uchi (qinni tekshirgan vaqtda aniqlangan) bachadon bo'yinchasi kanaliga yuboriladi. Keyin tok ulanib, qorin pressi muskullarini birinchi qisqarishi kuzatiladi va bu bachadon muskullari qisqarishining boshlanishi deb hisoblanadi. Asta-sekinlik bilan tok kuchlanishi oshirilib, yosh sigirlarga 6-8 voltgacha, 5 yoshdan katta bo'lgan sigirlarga esa 12 V gacha yetkaziladi. Elektrostimullyatorni qo'llash muddati 3 daqiqadan oshmasligi kerak, har bir seans oralig'i 48 soat, davollash kursi bachadon yallig'lanishining og'ir-yengilligiga qarab 5 martagacha o'tkaziladi.

To'qimalardan tayyorlangan dorilar bilan davolashda Filatov usuli bilan jigar, taloq va boshqalardan tayyorlangan dorilardan teri ostiga 10-20 ml yuboriladi. Shuningdek, jigar plasentar aralashmasi ham qo'llaniladi. Dorilar 2-5 marta har 5-7 kun oralig'ida ishlatiladi.

Autogemoterapiyada - autoqon 60-100 ml miqdorida har 3-4 kun oralatib yuboriladi.

Novokainli blokadalar o'tkazish. Morozov usuli buyicha buyrak oldi noaokainli blokadasini. Bu usulda 0,2%-li novokain eritmasini (sigirlar uchun 300-

350 ml, g'unajinlar uchun esa 200 ml miqdorida) bel umurtqasining o'ng tomonidagi ikkinchi va uchinchi ko'ndalang qovurg'asimon o'simtasidan 8-9 sm pastdan uzunasiga o'tadigan chiziq bo'lib yuboriladi.

Yo'ldoshni ushlanib qolishi oqibatidagi o'tkir endometritlarni davolash. Endometrit bilan og'rigan hayvonlarga antibiotikoterapiya: (penisillin, streptomisin, biomisin, tetrasiklin, eritromisin va boshqalar) tavsiya etiladi. Penisillin ko'pincha streptomisin va boshqa antibiotiklar bilan birgalikda qo'llanadi. Penisillin dozalari (1 kg tana vazniga ming TB hisobida): otlarga - 1-2, qoramollarga - 2-3, qo'ylarga - 4-10, cho'chqalarga - 2-3 hisobida muskul orasiga yuboriladi. Strepto-misinning o'rtacha sutkalik dozasi qoramol uchun - 2-4 mln TB (5 ming TB/kg dozada kuniga ikki mahal). Kasal hayvonning ahvoliga qarab, har 3-6 soatda 1 marta inyeksiya qilinadi.

Antibiotiklar odatda hayvon sog'ayib, tana harorati me'yoriga kelganidan keyin ham 3-4 kun davomida qo'llaniladi. Antibiotiklar bachadon ichiga ham yuboriladi.

Mikroorganizmlar antibiotiklarga chidamli bo'lsa, sulfanilamid preparatlari: sulfidin, sulfazol, sulfasil va norsulfazol ishlatish kerak. Bu preparatlar 2-3 kun davomida kuniga 1-2 marta qo'llanadi.

O'tkir endometritlarda umumiy davolash bilan birga bachadon qisqarishini kuchaytirish va bachadon bo'shlig'ini ekssudatdan bo'shatishga qaratilgan davolash tadbirlarini ham ko'rish zarur. Bachadonni yuvib, ekssudatni chiqarib tashlash yaxshi samara beradi.

Bachadonni yuvish uchun quyidagi eritmalar: rivanol, xinozol, tripaflavin yoki akriflavin eritmaları (1:1000), kaliy permanganat eritmasi (1:10000), soda eritmasi (1-2%-li), osh tuzi (1 va 3-10%-li), sut kislota (0,5%-li), borat kislota (2-3%-li), ixtiol (3%-li), tanin eritmasi (0,5%-li) va boshqalar ishlatiladi.

Bachadondan ekssudatni chiqarib tashlashga yordam beradigan, uning qisqarishini kuchaytiradigan boshqa davo usullaridan ozokerit, parafin, applikasiyalar qo'yishni, balchiq bilan davolash va bachadonni massaj qilishni aytib o'tish zarur. Barmoqlarning yumshoq joyi bilan silab, massaj qilinadi. Limfa va

vena tomirlari bo'ylab, ya'ni shoxlarining uchidan bo'yniga qarab, 3-5 daqiqa davomida massaj qilib boriladi.

Qon quyilgandan keyin, gematomalar, yirik qon tomirlarining tromboz va barcha turdagi yiringli yallig'lanish jarayonlarida hamda yomon sifatli o'smalarda bachadonni massaj qilish yaramaydi.

Bachadonning qisqarishini kuchaytirish uchun teri ostiga pituitrin, pregnantol yoki belladona ekstrakti yuboriladi (yirik hayvonlarga 5-10 ml).

Koba .I.S (2001) ma'lumotlariga ko'ra, bakterial-mikozli xarakterdagi o'tkir endometritlarni davolashda fupedin, bromasid va endoton preparatlari kompleks davolash xususiyatiga ega bo'lib, (antimikrob, yallig'lanishga qarshi, regenerativ jarayonlarni stimullovchi, uterotonik) ularni qo'llashning terapevtik samaradorligi yuqori hisoblanadi. Tug'ruqdan keyingi o'tkir endometritlarni davolashda pudedinni qo'llashning terapevtik samaradorligi 90,3%, endoton -90%, bromasid -88,9% ni tashkil etgan. Ya'ni boshqa davolovchi vositalarga nisbatan 11,8-20% ga yuqori bo'lgan. Bu preparatlarning zaharlilik darajasi ham boshqa analoglariga nisbatan past hamda organizmdan tezda chiqarilib ketadi, shuning uchun sut bilan uzoq vaqtgacha ajralib turmaydi.

Endometritlarni davolash uchun gormonal va neyrotrop preparatlar: sinestrol, stilbestrol, karboxolin, prozerin va boshqalar ishlatiladi. Sinestrolning o'simlik moyi yoki spirtidagi 1%-li eritmasi 3-5 ml yoki 1,5-2,5 ml stilbestrol 24 soat oralatib 3-4 marta teri ostiga yuboriladi. Neytrotrop preparatlar (0,1%-li karboxolin 2-3; 0,5%-li prozerin 2-3 ml) teri ostiga yuboriladi.

Internet ma'lumotlariga ko'ra (2009), yo'ldoshni ushlanishida homila yo'loshi ajratilgandan keyin uning asorati sifatida kuzatilgan endometritlarni davolashda quyidagi dorilar ishlatilishi tavsiya etiladi:

Diagnoz: o'tkir yiringli-kataral endometrit (Endometritis puerperalis catarrhalis purulenta acuta)

Rp.: Oxitocini – 40TB

D.t.d. № 8 in ampullis

S. Teri ostiga, bir marta yuborish uchun.

#

Rp.: Sol. Glucosi – 200ml

D.t.d. № 3 in lag

S. Vena qon tomiriga, 1 flakondan kuniga bir marta, 3 kun davomida yuborish uchun.

#

Rp.: Sol. Calcii chloridi – 10ml

D.t.d. № 10 in ampullis

S. Vena qon tomiriga, glyukozaga aralashtirib 1 marta yuborish uchun.

#

Rp.: Sol. Triviti – 10ml

D.t.d. № 3 in ampullis

S.Muskul orasiga, kuniga 1 ampuladan 2 kunda bir marta yuborish uchun.

#

Rp.: Sol. Sinestroli Oleosae – 2% 2ml

D.S. Muskul orasiga, bir marta yuborish uchun.

#

Rp.: Carbacholini – 0.1% 2ml

D.t.d. №2 in ampullis

S. Teri ostiga, kuniga 1 ampuladan yuborish uchun..

#

Rp.: Furasolidoni suppos. vaginalis – 1.0

D.t.d. №28

S. Bachadon ichiga, bir martada 4 suppozitoriydan yuborish uchun.

Surunkali endometritlarni davolash. Hayvonni yetarlicha oziqlantirish va parvarishlash, yayratish tavsiya etiladi. Davolashda bachadon massaj qilinadi va qin orqali 3-4 l dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan (harorati 42-43°C boʻladi) har 1-3 kunda bir marta, kamida 4-5 marta vanna qilinadi.

Hayvonni urugʻlantirishdan bir necha soat ilgari bachadonni 0,9%-li natriy xlorid (40-42°C) eritmasi bilan yoki tuz-soda-qand eritmasi bilan (100 ml

distillangan suvga 1,0 natriy xlorid, 3,0 natriy bikarbonat va 90,0 qand) yuvib, keyin massaj qilish tavsiya etiladi (A.Yu.Tarasevich, 2003). Bu eritmadan bachadonga 250-500 ml gacha yuborish kerak.

Bachadon bo'yni yetarlicha ochiq bo'lgan taqdirdagina bachadonni yuvish mumkin. Eritmani bachadonga kiritishni iloji bo'lmasa, shu eritmada qinni yuvish bilan kifoyalaniladi, bachadon bo'ynini zo'rlab ochish yaramaydi. Vannalar bilan bir qatorda autogemoterapiya ham yaxshi natija beradi (3-4 kun oralatib, ikki marta).

Davolashda teri ostiga sinestrolning 1% -li yog'li yoki spirtli eritmasidan 3-5 ml har 24 soatda bir marta, jami 3-4 marta yuboriladi; stilbestrol 1,5-2,5 ml dan ishlatiladi (0,005%-li eritmasi). Estrogen gormonlar bilan bir paytda karboxolinni qo'llash ham sigirlarda yaxshi natija beradi. Bunda teri ostiga sinestrolning 1%-li yog'li eritmasi (3-5 ml), 2 soatdan keyin esa karboxolinning 0,1%-li suvdagi eritmasidan 2-3 ml yuboriladi. Bu preparatlar kunora, jami uch marta qo'llaniladi.

Surunkali kataral endometritlarni davolash. Kasal hayvonlarni avvalo to'la qimmatli oziqalar bilan yetarlicha ta'minlash kerak. Davolashda xuddi o'tkir endometritdagidek bachadon dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan yuviladi. Eritmalar issiq (42-43°C) holda bo'lishi kerak.

Natriy xloridning suvdagi eritmasi bilan endometritni davolash yaxshi natija beradi. Mazkur eritma bilan yuvish shilliq pardani anchaga ta'sirlantiradi va bachadondagi hamma nerv-muskul apparatini qo'zg'atadi. Eritma distillangan yoki qaynatilgan suvda tayyorlanadi. Eritma konsentrasiyasi bachadonda chiqadigan ekssudatning miqdori va sifatiga qarab, har xil bo'ladi. Dastlabki yuvish uchun 5-7%-li eritmalar ishlatilsa, ekssudatlar kamayib qolganidan keyin 2-4%-li eritmalar ishlatiladi va hokazo. Davolashning oxiriga kelib, natriy xloridning 1%-li eritmasi yoki yaxshisi tuz-soda-qand eritmasi ishlatiladi. Yuvish uchun 2-3 l eritma kerak bo'ladi, Ekssudat ko'p miqdorda chiqayotgan bo'lsa, bachadonni ko'proq yuvib turishi lozim.

Bachadon yuvilganidan keyin 10-15 daqiqa o'tgach, eritma qoldig'ini va undagi patologik mahsulotlarni bachadondan chiqarib tashlash kerak. Buning uchun bachadonni har 1-2 kunda to'g'ri ichak orqali massaj qilib turish lozim.

Bundan tashqari, sinestrol yoki stilbestrolning 1%-li eritmasi har 24 soatda bir marta, jami 3-5 marta teri ostiga yuboriladi.

Antibiotiklar, sulfanilamid preparatlari va organizmning umumiy tonusini hamda mahalliy va umumiy himoya kuchlarini oshiradigan boshqa shifobaxsh moddalar ishlatiladi.

Surunkali yiringli endometritlarni davolash. Kasallikning boshlang'ich davrida xuddi yiringli-kataral endometritdagidek bachadonni yuvish va massaj qilish kerak. Bundan tashqari, tuxumdonda sariq tana saqlanib qolgan bo'lsa, tegishli operatsiya qilinadi.

Kasallik surunkali kechganda bachadonni bir marta Lyugol eritmasi bilan yuvish zarur (A.Yu.Tarasevich). Bachadonga 100-200 ml Lyugol eritmasi (kristall yod 1,0, kaliy yodid - 2,0 va suv - 100,0) yuborishdan oldin bachadon bo'yni kanalini quruq steril tampon bilan artib, borli vazelin surtish lozim. Eritma bachadonda 10-15 daqiqa turgach, keyin to'g'ri ichak orqali massaj qilinib, tashqariga chiqarib tashlanadi. Ikkinchi kundan boshlab bachadon osh tuzining gipertonik eritmasi bilan yuviladi. Bachadon dastlab, 10%-li eritma bilan bir-ikki marta yuviladi, keyin eritmaning konsentrasiyasi asta-sekin kamaytirilib boradi va oxiri bachadon tuz-soda-qand eritmasi bilan yuviladi.

Koba .I.S (2009) sigirlarda o'tkir endometritlarni oldini olish uchun o'z vaqtida akusher-ginekologik dispanserlash o'tkazish orqali kasal hayvonlarni aniqlash, kasallangan hayvonlarni alohida xonalarga ajratish, tug'ruqxonalarda gigiyena-sanitariya qoidalariga rioya qilinishi, tug'ishda aseptika-antiseptika qoidalariga rioya etilishi, faol masion tashkil etilishi, patologik tug'ishlarda akusherlik yordami ko'rsatishni to'g'ri tashkil etish kabi profilaktik tadbirlarni bajarilishi lozimligini ta'kidlaydi

Bachadon kasalliklarini oldini olish uchun har bir xo'jalikda quyidagi umumiy xo'jalik - zooveterinariya chora-tadbirlarni o'tkazish lozim:

Hayvonlarni to'yimli oziqlar bilan oziqlantirmaslik, masionning yetarli bo'lmisligi, molxonalarda antisanitariya sharoitlari bachadon kasalliklarining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Shuni eslatib o'tish kerakki, qish va bahorda to'liq oziqlantirilmagan sigirlarning 50 foizida yozgi paytda ham moddalar almashinuvi darajasi tiklanmaydi. Shuning uchun har bir xo'jalikda yetarli yem-xashak bazasini yaratish, hayvonlarning yoshi, tana vazni, fiziologik holati va mahsuldorligiga qarab, me'yordagi yem-xashak bilan ta'minlash zarur.

Moddalar almashinuvi darajasini nazorat qilish va oziqlantirishni tartibga solish maqsadida vaqti-vaqti bilan ayniqsa, qish va bahor oylarida sigir va g'unojinlar qonidagi kalsiy, fosfor, karotin, oqsil va zahira ishqoriylik darajasini tekshirib turish lozim.

Ratsionda vitaminlar yetishmaganda ularning preparatlari rasionga kiritiladi. Vitaminlarning preparatlari bo'g'oz sigirlarga har 3-5 kunda bir marta, jami 5 marta quyidagi miqdorda muskul orasiga inyeksiya qilinadi: A vitamini -200 ming HB, D vitamini -5 ming HB, Ye vitamini -10 mg. Ularning kompleks preparatlari (trivit, tetravit, tetramag) bir boshga 5-10 ml qo'llanishi ham mumkin.

Ratsionda yod yetishmovchiligi aniqlanganda kuz, qish va bahor oylarida bo'g'oz sigirlarga har kuni 2-3 tabletka kayod preparati yem bilan berilishi yaxshi natija beradi. Kayod preparatini sog'iladigan sigirlar va buqalarga berilganda ular mahsuldorligining ortishi kuzatilgan (.Norboyev. Q.N va b, 2007).

Moddalar almashinuvini yaxshilanish, yo'ldoshni ushlanib qolishi va buzoqlarda dispepsiya kasalligining oldini olish uchun bo'g'oz sigirlarning tug'ishiga 25 kun qolganda silos, senaj kabi oziqalarni rasiondan chiqarish va o'rniga 8-10 kg yarim qand lavlagi kiritish lozim. Bo'g'oz sigirlar rasionida 100 g oqsilga 80-150 g uglevod to'g'ri kelishini ta'minlash lozim.

Koba I.S (2009) ma'lumotlariga ko'ra, sigirlarning o'tkar endometritlar bilan kasallanishi tuqqandan keyingi davrda ko'pincha yo'ldoshni ushlanib qolishi yoki bachadon atoniyasi oqibatida bachadon shilliq pardasida endo-va ekzogen xarakterdagi shartli patogen mikroorganizm-larning rivojlanishi tufayli kuzatilib,

barcha davlatlarda sigirlarning o'tkar endometritlar bilan kasallanishi ko'p qayd etiladi.

Sigirlarning yo'ldoshni ushlanib qolishi bilan kasallanishida oziqlantirish va ularni bo'g'ozligida parvarishlashdagi yetishmovchiliklar, modda almashinuvlarining buzilishi, organizm rezistentligini pasayishiga sabab bo'ladigan omillar, bachadonning lokal immunitetining pasayishi sababli unga tashqaridan tushgan mikrofloralar rivojlanishi uchun qo'lay sharoit yaratilishi hisoblanadi.

Har bir xo'jalikda yaxshi jihozlangan molxona va sayr maydonlari bo'lishi kerak. Sigirlarni qoidaga asosan saqlash va tug'ishiga 50-60 kun qolganda sog'ishni to'xtatishga e'tibor beriladi.

Bo'g'oz va sutdan chiqarilgan sigirlarni alohida-alohida guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir. G'unojin va sigirlarni, ayniqsa, tuqqanidan keyin 3-4 kun o'tgach, har kuni sayr qildirish zarur. Buning uchun ularni ferma atrofini aylantirib, kuniga 1-2 marta 2-3 km masofaga haydab turish lozim.

Noqulay iqlim (yorug'lik, yuqori yoki past harorat, ammiak, namlik) natijasida qisir qolishning oldini olish maqsadida molxonalar sanitariya holatini yaxshilash, ferma atrofida yaxshi mikroiklim yaratish, sigir va buqalarni cho'miltirish uchun dushlar qurish maqsadga muvofiqdir.

Fermada tug'uruqxonalar va yangi tug'ilgan buzoqlar uchun profilaktoriylar tashkil qilinib, tug'ishiga 10 kun qolgan sigirlar yaxshilab tozalanganidan keyin tug'uruqxonaga o'tkaziladi, veterinariya-sanitariya qoidalariga amal qilingan holda tug'adigan sigir va buzoqlarga birinchi yordam berish uchun navbatchilik yo'lga qo'yiladi.

Sigirning tug'ishi me'yorida o'tishi uchun tug'uruqxonalarda alohida bokslar tashkil qilinadi. Bokslarga sigir tug'ishidan 2-3 kun ilgari o'tkaziladi.

Sigir tuqqanidan keyin buzog'ini yalashga imkon berish va buzoq kamida 5-7 kun onasi bilan birga saqlanishi lozim. Lekin bunda buzoq emishidan ilgari sigirning yelin so'rg'ichlari issiq suv bilan yaxshilab yuvilib artilishi zarur.

Yuqoridagi chora-tadbirlarning o'tkazilishi yo'ldosh ajralishini tezlashtiradi, yelin kasalliklarining oldini oladi, sigirlar jinsiy faoliyatini tezda tiklaydi va buzoqlarni saqlab qolinishini ta'minlanadi.

Chomayev A.M.va boshqalar (2003) yozishicha, sigirlar tuqqandan keyin bachadonining tiklanish jarayoni uchun 50-60 kun ketadi. Shuning uchun ular sigirlar tuqqandan keyin birinchi oy mobaynida qochirish yuqori samara bermaydi, qochirishni ikkinchi oyda amalga oshirish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelganlar. Mualliflarning fikricha, 4000 kg sut mahsuldorligiga ega sigirlarni tuqqandan keyin taxminan 40-kunlarda qochirish eng qulay muddat hisoblanadi.

Sigirlarning pushtdorlik xususiyatlari ularning sut mahsuldorligi bilan bog'liq bo'lgan muhim xususiyatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Olimlarning fikricha, sigirlarning pushtdorlik xususiyatlariga oziqlantirish va asrash omillari bilan birga tashqi muhit omillaridan havo harorati, namligi, quyosh nuri ham katta ta'sir etadi.

Tuqqandan keyin dastlabki 31-70 kun mobaynida sigirlarning otalanishi eng maqbul muddat hisoblanadi, bundan muddat va otalangan sigirlarning sut mahsuldorligi Ushba muddatlardan keyin otalangan tengqurlari mahsuldorligidan 19,1-30,0% yuqori bo'ladi.

III. XUSUSIY TADQIQOTLAR.

III.1. Xo'jalikning iqtisodiy tavsifi.

Tadqiqotlarning tajriba qismi 2015 yilda Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanidagi "Jura" fyermiyer xo'jaligi sharoitida o'tkazildi.

Xo'jalikda yyerlari asosan bo'z tuproqlardan iborat. Xo'jalikning yer maydoni 138 gyektardan iborat. Xo'jalikning yer maydoni 2012 yilda 60 gyektarga ko'pytirilgan. Bu fyermiyer xo'jaliklarini kattalashtirish va optimallashtirish asosida amalga oshirilgan bo'lib xo'jalik yerlaridan asosan mollar uchun oziqa yetishtirish maqsadida foydalaniladi.

Xo‘jalikning yer fondi, ga

Ko‘rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil
Umumiy yer maydoni	78	138	138
Qishloq xo‘jalik yerlari	74	134	134
Sug‘oriladigan yerlar	74	134	134
Ko‘p yillik daraxtzorlar	3	3	3

Xo‘jalik asosan sut ishlab chiqarishga va nasilli g‘unoinlar etishtirishga ixtisoslashgan chorvachilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanadi. Fyermyer xo‘jaligining tabiiy-iqlim va tuproq sharoiti qishloq xo‘jalik ekinlarini o‘stirish va rivojlantirish uchun qulaydir.

Kyeyingi yillarda don ekinlari maydoni 40 gyektarga, ularning hosildorligi 25 syentnyer ko‘paygan. Don uchun makkajo‘xori maydoni 5 gyektarga ko‘paygan va hosildorlik 9 syentnyerga oshgan.

Silos uchun makkajo‘xori maydoni 5 gyektarga ozayib, hosildorligi 25 syentnyer kamaygan. Ko‘k byeda uchun byeda maydonlari 10 gyektarga ko‘payib hosildorligi 5 syentnyerga pasaygan.

Qishloq xo‘jalik ekinlari maydoni va ularning hosildorligi

Ekin turlari	2013 yil		2014 yil		2015 yil	
	ga	hosil-dorlik, s	ga	hosil-dorlik, s	ga	hosil-dorlik, s
Don ekinlari	40	40	80	45	80	70
Makkajo‘xori: don uchun	8	57	20	60	20	66
Silos uchun	18	295	24	300	24	320
Byeda ko‘k o‘t uchun	6	280	8	300	12	500
Pichan uchun	2	130	2	140	2	145

Kyeyingi yillarda don ekinlari maydoni 40 gyektarga ko‘paygan, ularning hosildorligi 2013 yilga nisbatan 2014 yilda 5 s oshgan, 2015 yilda esa 25 syentnyer ko‘paygan. Don uchun makkajo‘xori maydoni 12 gyektarga ko‘paygan va hosildorlik 13 syentnyerga oshgan.

Silos uchun makkajo‘xori 5 gyektarga ko‘payib, hosildorligi esa 25 syentnyerga ko‘paygan. Ko‘k byeda uchun byeda maydonlari 4 gyektarga ko‘payib hosildorligi 200 syentnyerga oshgan. Pichan uchun byeda maydoni 2 gyektarni tashkil etib, hosildorligi 2013 yilda 130 syentnyer, 2014 yilda 140 s va 2015 yilda 145 s tashkil etgan.

Umuman kyeyingi yillarda ekinlarning hosildorligi ancha yuqori bo‘lgan. Bu xo‘jalikda yerlarning myeliorativ holati va hosildorligi yaxshilanib borayotganligidan dalolat byeradi. Hosildorlikni yanada ko‘paytirish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun agrotexnika tadbirlarini o‘z vaqtida sifatli o‘tkazish, mahalliy va madaniy o‘g‘itlardan samarali foydalanish zarur.

Xo‘jalikda chyetdan kyeltirilgan zotli qoramollar, shuningdyek, qo‘ylar va otlar urchitiladi.

3-jadval

Xo‘jalikda chorva mollarini sonining o‘zgarishi, bosh

T.R.	Ko‘rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil
1	Jami qoramollar	293	317	328
2	Shundan sigirlar	77	102	102
3	Jami qo‘ylar	550	634	709
4	Shundan sovliqlar	84	120	150
5	Jami otlar	4	4	4
6	Shundan biyalar	2	2	2

Kyeyingi yillarda qoramollari soni 35 boshga, shundan sigirlar soni 25 boshga ko‘paygan. Qo‘ylar soni 159 boshga ko‘paygan. Mollar sonining ko‘payishi fyermiyer xo‘jaliklarining tashkil etilishi yaxshi samara byerayotganligini ko‘rsatadi.

Xo‘jalikda chorva mollarining mahsuldorligi va bola byerishi quyidagicha o‘zgarib borgan (4-jadval).

Chorva mollarining mahsuldorligi

t/r	Ko'rsatkichlar	2013 yil	2014 yil	2015 yil
1	Bir sigirdan olingan sut, kg	2740	2250	5600
2	Buzoq olish, bosh	61	81	86
3	100 bosh sovliqdan qo'zi olish, bosh	67	96	120

Kyeyingi 3 yilda sigirlarning sut mahsuldorligi 2860 kg ga ko'paygan, sigirlardan buzoq olish 25 boshga ko'paygan. Buning sababi sigirlar sonining ko'payishi va sigirlarning o'z vaqtida urug'lantirish ishlarining yaxshi yo'lga qo'yilganligidir. 100 bosh sovliqdan qo'zi olish 53 boshga ko'paygan.

Chorva mollarining mahsuldorligini oshirish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun mollarni zoovyeteryinariya talablari asosida oziqlantirish, asrash, o'z vaqtida urug'lantirish va ulardan to'g'ri foydalanish lozim.

Xo'jalikda chorva mahsulotlari ishlab chiqarish uchun ozuqa sarfi quyidagicha o'zgarib borgan (5-jadval).

Chorva mahsulotlari uchun oziqa sarfi (oziqa birligi)

t/r	Mahsulot turlari	2013 yil	2014 yil	2015 yil
1	1 kg sut uchun	1,93	1,72	1,45
2	1 kg syemirish uchun	30,0	29,0	27,0

Xo'jalikda mahsulot birligi uchun ozuqa harajatlari birmuncha yuqori bo'lgan. 1 litr sut uchun ozuqa birligiga, 1 kg syemirish uchun ozuqa harajati qariyb 3 marta ortiq bo'lgan. Buning sababi oziqlantirishdagi har xil buzilishlar, ayrim paytlarda yem oziqalarning yetishmay qolishi natijasida mollarning ozib kyetishi, oziqalarni notug'ri sarflash, hisob-kitob ishlaridagi kamchiliklardir. Odatda hayvonlarni

mye'yoriy oziqlantirishdagi 1 litr sut uchun o'rtacha 1,2 ozuqa birligi, qoramollarning 1 kg qo'shimcha syemirish uchun 8-10 ozuqa birligi sarflandi.

III.2.Tadqiqotlar obyekti va uslublari

Sigirlarda yo'ldoshni ushlanib qolishi va uning asorati sifatida kuzatiladigan bachadon kasalliklarining tarqalishi, sabablari va rivojlanish xususiyatlari, klinik belgilari va qondagi morfobiokimyoviy o'zgarishlarni hamda ushbu kasalliklarning oqibatlarini o'rganish maqsadida sog'in sigirlar dispanser tadqiqotlar o'tkazilib, xo'jalikning chorvachilik bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlari, hayvonlarni saqlash va oziqlantirish sharoitlari, sut mahsuldorligi, buzoq olish, ularning tug'ilgandagi tana vaznini tahlil qilish asosida poda sindromatikasi o'rganildi.

Sigirlarning oziqa ratsionlari tarkibi va to'yimligi, tarkibidagi hazmlanuvchi protein, qand, karotin, kalsiy, fosfor, kletchatka miqdorlari bo'yicha zootexnikaviy tahlil qilinib, oziqlantirish me'yorlari bilan taqqoslash asosida hayvonlar organizmi ehtiyojlarining qondirilish darajasi o'rganildi. Rasion tipi va strukturasi uning umumiy to'yimlilik ko'rsatkichidan tarkibidagi oziqalar ulushini ajratish orqali aniqlandi.

Laboratoriya tekshirishlari Sam QXI "Hayvonlarning yuqumsiz kasalliklari, akusherlik va ginekologiya" kafedrasida ilmiy laboratoriyasida o'tkazildi.

Xo'jalikdagi sigirlarning klinik holati aniqlanib, bunda umumiy holati, ishtaha, semizlik darajasi, tashqi ta'sirotlarga javob reaksiyasiga e'tibor berildi. Umumiy qabul qilingan klinik tekshirish usullari bilan shilliq pardalar, teri va teri qoplamasi, harakat a'zolarining holati, oshqozon oldi bo'limlarining 5 daqiqadagi harakati, tana harorati, 1 daqiqadagi yurak urishi va nafas soni, qindan ekssudat oqishi va uning xarakteri aniqlandi.

Sigirlar tuqqandan keyin va har 5 kunda bir marta klinik tekshirishlar, qin orqali va rektal tekshirishlar yordamida bachadonning holati va uning o'z holiga kelishi (subinvalyusiyasi) aniqlanib borildi. Sigirlarda kuyga kelish va jinsiy siklning kechishi o'rganildi.

Tashqi tekshirishlar bilan jinsiy lablar halati, undan shilimshiq suyuqlik oqishi, uning rangi, hidi va konsistensiyasi, shilliq pardalarning rangi aniqlandi.

Qin oynasi yordamida qin orqali tekshirish bilan qin shilliq pardasining holati, bachadon buyinchasining holati, uning yopilganlik darajasi, bachadondan ajralayotgan suyuqlikning xarakteri o'rganildi.

To'g'ri ichak orqali tekshirish bilan bachadonning kattaligi, shoxlarining holati, unda suyuqlik borligi, bachadon devorining qisqarishi, hamda tuxumdonlar holati, ularda follikulalar yoki sariq tana borligi aniqlandi. Yo'ldoshni ushlanib qolishi va uning oqibatida endometrit bilan kasallangan sigirlar davolashni boshlashdan oldin va har kuni bir marta tekshirishlardan o'tkazilib turildi.

Sigirlardan olingan qon na'munalarida eritrositlar va leykositlar soni (Goryayev sanoq to'rida), gemoglobin (Gemoglobin-sianidli usul), glyukoza (Ortoluidin bilan rangli reaksiya), qon zardobida umumiy oqsil (Refraktometrik usul), leykogramma (Romanovskiy-Gimza usulida bo'yalgan surtmalarda) aniqlandi.

Qindan olingan suyuqlikdagi mikroorganizmlarning antibiotiklarga sezuvchanligi ekmadagi antibiotiklar disklari atrofida mikroflora o'smagan zona kattaligini aniqlash orqali aniqlandi.

Sigirlarda yo'ldoshni ushlanib qolishi va uning asorati sifatida kuzatiladigan bachadon kasalliklarini davolashni takomillashtirishda davolash vositalarini tanlash, qo'llanilgan preparatlarning terapevtik samaradorligini aniqlash maqsadida, ularning sigirlar klinik-fiziologik holati, qonning ayrim morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari va fiziologik holatiga ta'sirini o'rganish, davolash vositalarining terapevtik va iqtisodiy samaradorligini aniqlash maqsadida davolash tajribalari o'tkazildi.

Tajribalar uchun har birida 2 boshdan endometritlar bilan kasallangan sog'in sigirlar bo'lgan ikkita guruh tashkil etilib, birinchi tajriba guruhidagi sigirlar quyidagicha davolandi:

Sigirlarda yo'ldoshni ushlanib qolishi va uning oqibatida kuzatiladigan endometritlarni davolashda qin va bachadon buyinchasi tuzli-sodali eritma (10 g osh tuzi, 20 g natriy gidrokarbonat, 1 l qaynatilgan suv) bilan kuniga bir marta, jami

3 marta yuvish, oksitosinning 1%-li eritmasidan 8 ml (60-80 TB) teri ostiga yuborish, metranidazol antibiotigidan 100 ml kuniga bir marta vena qon tomiriga yuborish, “Dipen” antibiotigidan bir marta 20 ml muskul orasiga yuborish.

2- nazorat guruhidagi endometritlar bilan asallangan sigirlar xo‘jalikda joriy etilgan usulda quyidagicha davolandi:

- bachadon 0,1%-li kaliy permanganat eritmasi bilan yuvildi; bachadon buyinchasiga furazolidon tayoqchasidan 4 dona qo‘yildi; Dipen antibiotigidan 20 ml bir marta muskul orasiga yuborildi.

Davolash tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi sigirlarning urug‘lanish indeksini hisobga olish orqali aniqlandi. Olingan natijalar SI sistemasida berildi.

III.3. Sigirlarda yo‘ldoshni ushlanib qolishini davolash va oldini olish tajribalarining natijalari.

III.3.1. Sigirlarni oziqlantirishning tahlili.

Sigirlarda yo‘ldoshni ushlanib qolishining etiologiyasi ko‘p jihatdan hayvonlarni saqlash sharoitlari, oziqlantirish tipi, rasionlarning to‘yumliligi, hayvonlar organizmining biologik faol va mineral moddalar, ayniqsa, mikroelementlar bilan ta‘minlanish darajasiga bog‘liq.

Sigirlar organizmining to‘yimli moddalar va shuningdek, vitaminlar hamda makro- va mikroelementlarga bo‘lgan ehtiyojlarining qondirilish darajasini o‘rganish maqsadida xo‘jaliklarda sigirlar rasionlari tarkibi va to‘yimligi bo‘yicha zootexnikaviy tahlil qilindi.

«Jo‘ra» fermer xo‘jaligida sigirlar ratsioni asosan silos – konsentrat tipida ekanligi bilan xarakterlansada, oziqlantirish me‘yorlariga nisbatan 2,08 oziqa birligining yetishmasligi qayd etildi. Ratsiondagi hazmlanuvchi protien 911,8 grammni, u bilan ta‘minlanish esa 105,8 foizni tashkil etdi.

Ratsionning bir oziqa birligiga 154 g hazmlanuvchi protein to‘g‘ri keldi. Oziqlantirish me‘yorlari bo‘yicha 1 kg oziqa birligiga 100-110 g hazmlanuvchi protein to‘g‘ri kelishi eng optimal miqdor hisoblanadi.

Sigirlar ratsionning asosiy qismini tashkil etadigan paxta sheluxasi va shroti tarkibida hazmlanuvchi proteinning ko'p bo'lishi (o'rtacha 17-54 %) bilan bir qatorda bu oziqalar tarkibida hayvonlar uchun zaharli hisoblangan gossipol alkaloidining konsentrasiyasi 1 kg quruq moddada 0.020-0,046% gacha yetishi mumkin. Shuning uchun hayvonlarga uzoq muddat paxta sheluxasi va shroti berilishi ularning zaharlanishi hamda yo'ldoshni ushlanib qolishiga sabab bo'ladi.

Ratsiondagi qand miqdorining me'yorlardan 364,4 grammga kamligi aniqlandi. Qand-oqsil nisbati me'yordagi 0,8-1,2 o'rniga 0,34 ni tashkil etdi. Ratsiondagi kletchatkaning miqdori me'yordagi 2850 g o'rniga 2726 grammni, karotinning miqdori 168,8 mg.ni tashkil etdi.

Xo'jalikda sigirlar ratsionining makroelementli tarkibi oziqlantirish me'yorlariga nisbatan kalsiyning 5,49 grammga va fosforning 6,3 grammga yetishmasligi bilan xarakterlandi. Fosforning kalsiyga nisbati 0,52 ga teng ekanligi aniqlandi.

Sog'in sigirlarning oziqlantirilishini tahlil qilish bilan shunday xulosaga keldikki, rasionlar tipi, tarkibi va to'yimlilik bo'yicha sigirlar organizmining to'yimli moddalar, biologik faol moddalar, mikroelementlarga nisbatan ehtiyojlarini to'liq qondirmaydi. Ratsionlarning oqsilli va energetik jihatdan nomutanosibligi, qand-oqsil va fosfor-kalsiy nisbatlarining pastligi, mineral moddalar miqdorining oziqlantirish me'yorlariga nisbatan kamligi sigirlarda modda almashinuvlarining buzilishi, tabiiy rezistentlikni pasayishi hamda bachadon kasalliklarini kelib chiqishida asosiy etiologik omillar hisoblanadi. Sigirlarni yil davomida bir joyda saqlanishi, gipodinamiya va gipoinsolyasiya ularda yo'ldoshni ushlanib qolishi va boshqa bachadon kasalliklarining kelib chiqishi hamda modda almashinuvlarining buzilishlarini yanada kuchayishiga olib keladi.

Tajribadagi sigirlar ratsioni

Oziqalar	Miqd o-ri, kg	Oz. birligi	Hazm. protein, g	Qand, g	Karotin, mg	Kalsiy, g	Fosfor, g	Kletchatka, g
Makka silosi	12	2,76	108	318	158,4	40,8	8,76	976
Bug‘doy smoni	3	0,54	10,8	1,58	10,6	5,61	6,3	473
Paxta sheluxasi	3	0,64	63,0	-	-	13,2	3,3	1020
Paxta shroti	2	1,98	730	-	-	5,2	15,4	256,0
Rasionda	20	5,92	911,8	315,6	168,8	64,51	33,7	2726
Me‘yor bo‘yicha talab etiladi		8,0	840	680	385	70	40	2850
Farqi, +,-		-2,08	+71,8	-364,4	-216,2	-5,49	-6,3	-123,0

Qand-oqsil nisbati -0,36; fosfor- kalsiy nisbati – 0,58.

III.3.2. Tajribadagi sigirlarni klinik, gematologik tekshirish natijalari

Xo‘jalikdagi yo‘ldoshni ushlanib qolishi kuzatilgan va yo‘ldosh ajratib olingan sigirlarni klinik-ginekologik tekshirish bilan ularda bachadonning yallig‘lanishlari turlari bo‘yicha o‘rganilganda sigirlarning o‘rtacha 75% ida kataral-yiringli endometrit, 15% ida fibrinli endometrit qayd etildi.

Yo‘ldoshni ushlanib qolishi oqibatidagi endometrit bilan kasallangan sigirlarni davolash tajribalarimizni boshlashdan oldin tajriba va nazorat guruhlaridagi endometritlar bilan kasallangan sigirlarning klinik-fiziologik ko‘rsatkichlari umumiy holsizlanish, befarqlik, ishtahaning o‘zgarishi, oshqozon oldi

bo'limlarining gipotoniyasi, shilliq pardalarning oqarishi (anemiya), qindan kataral-yiringli ekssudat oqishi kabi klinik belgilar bilan tavsiflangan bo'lsa, tajribalarning oxiriga kelib bu belgilar faqat nazorat guruhidagi sigirlarda kuzatildi.

Kataral-yiringli endometrit bilan kasallangan sigirlarda tana haroratini o'rtacha $0,5-1^{\circ}\text{C}$, yurak urishi sonini bir daqiqada 10-15 martagacha ortishi, umumiy holsizlanish, ishtahaning o'zgarishi, oshqozon oldi bo'limlarining gipotoniyasi, shilliq pardalarning oqarishi (anemiya), qindan kataral-yiringli ekssudat oqishi qayd etildi. Bu ko'rsatkichlar o'tkir kataral-yiringli endometritlar paytida tana haroratining ko'tarilishi va yurak urishi sonining ortishi bilan kechishi ma'lum bo'ladi.

Tajriba va nazorat guruhidagi sigirlar qonining ayrim morfobiokimyoviy ko'rsatkichlari tajribalarni boshlashdan oldin bir xil ko'rsatkichlar bilan xarakterlangan bo'lsa, nazorat guruhidagi sigirlarda bu ko'rsatkichlarning tajribalar oxirigacha yomonlashib borishi qayd etildi

Nazorat va tajriba guruhlarida davolanayotgan guruhlardagi kataral-yiringli endometritlar bilan kasallangan sigirlar gematologik ko'rsatkichlari 3-jadvalda keltirilgan. 3-jadvaldan ma'lumki, davolashning oxiriga kelib nazorat guruhida davolangan sigirlarga nisbatan tajriba guruhida yangi variantda davolangan sigirlarda gemoglobinni o'rtacha 5g/l ga, eritrositlarni – $1,54\text{ mln/mkl}$ ga ko'payishi, leykositlarni $3,20\text{ ming/mkl}$ ga kamayishi va leykoformula ko'rsatkichlarining fiziologik me'yorlar darajasigacha yaxshilanishi xarakterli bo'ldi. Nazorat guruhidagi sigirlarda esa gemoglobin, eritrositlar soni, umumiy oqsil miqdorini kamayishi, leykoformulada limfositlar, eozinofillar foizining ortishi, tayoqchayadroli, segmentyadroli neytrofillar va yosh neytrofillar foizining kamayishi hisobiga yadroni chapga siljishi bilan xarakterlandi.

Tajribadagi sigirlar gematologik ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	O'tkir yiringli endometrit bilan kasallangan sigirlar	
		Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Gemoglobin	g/l	108	113
Eritrositlar	mln/mkl	6,72	8,26
Leykositlar	ming/mkl	6,76	10,56
Eozinofillar	%	4,8	2,3
Limfositlar	%	63,0	40,6
Monositlar	%	2,5	2,3
Tayoqcha yadroli neytrofillar	%	2,0	8,4
Segmentyadroli neytrofillar	%	27,1	44,8
Yosh neytrofillar	%	0	1,1
Umumiy oqsil	g/l	60,8	76,5

Tajriba guruhidagi sigirlarda tajribalarning oxiriga kelib tajribalarning boshidagi ko'rsatkichlarga nisbatan klinik fiziologik statusning va qonning morfobiokimyoviy ko'rsatkichlarning yaxshilanishini qo'llanilgan preparatlarning organizmga ijobiy ta'siri bilan izohlaymiz.

Kataral-yiringli endometrit bilan kasallangan sigirlarda davolashning samaradorligi 1- tajriba guruhida 90 va 2- nazorat guruhida 40%ni tashkil etdi, ya'ni tajriba guruhida davolash samaradorligi 50%ga yuqori bo'ldi. Tajriba guruhidagi sigirlarning barchasi sog'ayib, davolash kursi o'rtacha 6 kunni tashkil etdi. Nazorat guruhida sigirlarning to'liq sog'ayishi kuzatilmasdan, davolash samaradorligi 70%ni, davolash kursi o'rtacha 12 kunni tashkil etdi

Davolash usullarining terapevtik samaradorligi

Guruhlar	Hayvonlar soni	Davolash muddati, kun	Davolash samaradorligi %	Bepushtlikning davomiyligi, kun
1-tajriba	2	6	90	94,5
2-nazorat	2	12	40	153,4

Davolash vositalarining urug‘lanish ko‘rsatkichlariga ta’siri.

Guruhlar	Urug‘lanish ko‘rsatkichi, %	Tug‘ishdan birinchi marta urug‘lantirishgacha bo‘lgan muddat, kun	Birinchi marta urug‘lantirilganda otalanish ko‘rsatkichi,%	Tug‘ishdan otalanishgacha bo‘lgan muddat, kun	Otalanish indeksi
1 Tajriba	95,0	52,55 ± 4,25	45,0	84,13 ± 0,74	1,5
2 nazorat	90,0	71,18 ±10,4	20,0	125,45 ±21,24	2,15

Tajribadagi sigirlar davolangandan keyin ularda kuyga kelishi va otalanishni o‘rganish maqsadida kuzatishlar olib borildi. Bunda tajriba guruhidagi sigirlarda urug‘lanish ko‘rsatkichi 95%, birinchi marta urug‘lantirilganda otalanish ko‘rsatkichi 45%, tug‘ishdan birinchi marta urug‘lantirishgacha bo‘lgan muddat 52,5 kunni, tug‘ishdan otalanishgacha bo‘lgan muddat 84 kun va otalanish indeksi 1,5 ni tashkil etdi. Nazorat guruhidagi sigirlarda esa otalanish indeksi 2,5 ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkichlar tajriba guruhida qo‘llanilgan preparatlarning terapevtik samaradorligi yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

III.3.3. ISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.

Sigirlarda yo'ldoshni ushlanib qolishi oqibatidagi bachadon kasalliklarini davolash tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlashda «Veterinariya tadbirlarining iqtisodiy samradorligini aniqlash» deb nomlangan (T.Abduraxmonov, R.B.Davlatov, 2004) uslubiy qo'llanmadan foydalanildi. Iqtisodiy samaradorliklarni sifatida iqtisodiy samara (Is) va veterinariya tadbirlari uchun sarflangan har 1 so'm harajat hisobiga olingan iqtisodiy foyda (Ss) aniqlandi.

Mahsulotlarning xarid narxleri o'rtacha bozor narxida olindi. Davolash tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlashda birlamchi ma'lumotlar qo'yidagi jadvalda keltirilgan.

9-jadval.

№	Ko'rsatkichlar	Kundalik variant	Tavsiya etilayotgan variant
1.	Guruhdagi hayvonlar bosh soni	6	6
2.	1 kg tana vaznining xarid narxi	1200	1200
3.	Bir sigirdan kunlik sut sog'ib olish	10,6	14,5
4.	1 kg sutning xarid narxi	200	200
5.	Veterinariya tadbirlari uchun harajat (bir boshiga so'm)		5854

Qo'llanilgan preparatining sut maxsuldorligiga ta'sirini aniqlash maqsadida tajriba va nazorat guruhidagi sigirlardan kunlik sog'ib olinadigan sut va uning yog'lilik darajasi sigirlarning tuqqandan keyingi 30- kunidan boshlab, 10 kun davomida o'rganildi.

Tajriba guruhidagi sigirlarda sut maxsuldorligining sezilarli darajada ortishi qayd etildi, ya'ni nazorat guruhiga nisbatan bir kunlik sut sog'ib olish bir bosh sigir hisobiga o'rtacha 3,2 kg. ga (51,6%) yuqori bo'ldi.

Tajribadagi sigirlar sut maxsuldorligi ko'rsatkichlari

Guruhlar	Bir kunda sog'ib olingan sut, kg	Nazorat guruhiga nisbatan, %	Sutning o'rtacha yog'liligi, %	10 kunda sog'ib olingan sut, kg	Nazorat guruhiga nisbatan, %
1-tajriba	8,4±0,27	135,4	4,0	86,2±2,18	138,5
2-nazorat	6,2±0,14	100	3,7	62,2±1,17	100

Endometritlar paytida o'lim koeffisienti aniqlanmaganligi tufayli guruhlab profilaktik davolash samaradorligini hisoblashda faqat qo'shimcha olingan mahsulotlarning tannarxi va veterinariya tadbirlari uchun sarflangan harajatlar hisobga olindi.

Tajribalar uchun har birida 3 boshdan endometritlar bilan kasallangan sog'in sigirlar bo'lgan ikkita guruh tashkil etilib, birinchi tajriba guruhidagi sigirlar quyidagicha davolandi:

- qin va bachadon buyinchasi tuzli-sodali eritma (10 g osh tuzi, 20 g natriy gidrokarbonat, 1 l qaynatilgan suv) bilan kuniga bir marta, jami 3 marta yuvish, oksitosinning 1%-li eritmasidan 8 ml (60-80 TB) teri ostiga yuborish, metranidazol antibiotigidan 100 ml kuniga bir marta vena qon tomiriga yuborish, "Dipen" antibiotigidan bir marta 20 ml muskul orasiga yuborish.

- 2-nazorat guruhidagi endometritlar bilan kasallangan sigirlar xo'jalikda joriy etilgan usulda quyidagicha davolandi:

- bachadon 0,1%-li kaliy permanganat eritmasi bilan yuvildi; bachadon buyinchasiga furazolidon tayoqchasidan 4 dona qo'yildi; Limoksin antibiotigidan 12 ml kuniga bir marta muskul orasiga yuborildi.

Oldi olingan zararni hisoblashda tajriba guruhidagi (20%) va nazorat guruhidagi (80%) sigirlarning kasallanish darajasi va shuningdek, bir bosh sigirga iqtisodiy zarar koeffisiyenti (Kz) hisobga olindi.

Bir bosh sigirga iqtisodiy zarar koeffitsiyenti (K_z) miqdori quyidagicha aniqlandi.

Tajriba guruhidagi sigirlardan olingan sut $14,5 \text{ kg} \times 2000 \text{ so'm} = 29000 \text{ so'm}$, nazorat guruhidagi sigirlardan sog'ib olingan sutning tannarxi $10,6 \text{ kg} \times 2000 \text{ so'm} = 21200 \text{ so'm}$ ni tashkil etdi, ya'ni bir bosh sigir hisobiga iqtisodiy zarar: $K_z = 29000 - 21200 = 7800 \text{ so'm}$.

Nazorat guruhidagi 5 bosh hayvonning 80 foizi (4 bosh) tajriba guruhidagi sigirlarning 20% (1 bosh) katalal-yiringli endometritlar bilan kasallanganligi aniqlandi.

Kasallanish koeffitsiyenti quyidagicha: $K_k = 4:5 = 0,80$ yoki $4 \times 100:5 = 80\%$

Kasallikdan keladigan qaqiqiy zararni quyidagicha aniqladik:

Tajriba guruhidagi hayvonlarning 20 foizi va nazorat guruhidagi sigirlarning 80 foizi osteodistrofiya bilan kasallangan:

$80 - 20 = 60\%$, 3 bosh sigir

$X_z = 3 \times 7800 = 23400 \text{ so'm}$

Tajribalarni o'tkazish uchun veterinariya xarajatlari (V_x) quyidagicha bo'ldi: = bir boshga bir kunda qin va bachadon buyinchasi tuzli-sodali eritma bilan yuvildi (650 so'm); oksitosinning 1%-li eritmasidan 4 ml teri ostiga yuborildi (400 so'm); metrit antibiotigidan 100 ml kuniga bir marta vena qon tomiriga yuborildi (1300 so'm); Limoksin antibiotigidan 12 ml kuniga bir marta muskul orasiga yuborildi (720 so'm) ya'ni jami $= 3080 \text{ so'm}$ veterinariya harajatlari (V_x) sarflandi.

Veterinariya vrachi tomonidan bajarilgan xizmatlar 60 kun davomida bir bosh sigir hisobiga 4660 so'mni tashkil etadi. Demak, umumiy veterinariya harajatlari $V_x = 3080 + 4660 = 7740 \text{ so'm}$ ni tashkil etadi.

Olingan foyda sut mahsuldorligi hisobiga: $14,5 - 10,6 = 3,9$ litr bir kunda $X \times 60 \text{ kun} = 2340 \text{ litr} \times 2000 \text{ so'm} = 468000 \text{ so'm}$ bir bosh sigirdan foyda olingan.

Sigirlarning endemik osteodistrofiya kasalligini oldini olishning iqtisodiy samaradorligini (I_s) quyidagicha aniqladik:

$I_s = Z_{oo} - V_x$ bunda,

Z_{oo} – veterinariya tadbirlari o'tkazish natijasida oldi olingan zarar (so'm).

V_x – veterinariya tadbirlari uchun qilingan harajat (so‘m)

$$I_s = 468000 - 7740 = 460260 \text{ so‘m}$$

Veterinariya tadbirlari uchun sarflangan 1 so‘m harajat hisobiga iqtisodiy samaradorligini (S_s) quyidagicha aniqladik:

I_s

$$S_s = \frac{I_s}{V_x} ; \text{ bunda}$$

V_x

I_s – iqtisodiy samaradorlik (so‘m)

V_x – veterinariya harajatlari (V_x)

460260

$$S_s = \frac{460260}{7740} = 59.46 \text{ so‘m}$$

Tajribalarni o‘tkazish davomida davolash tadbirlari xo‘jalikdagi 12 bosh sigirlarda o‘tkazildi. Demak, xo‘jalik bo‘yicha iqtisodiy samara yiqindisi 460260 so‘m x 12 bosh = 5.523120 so‘mni tashkil etadi.

IV. VETERINARIYA ISHINI TASHKIL ETISH VA UNING IQTISODI.

Respublikamizda mustaqillikka erishish bilan barcha sohalaridagi kabi veterinariya ishini tashkil etish va bu tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga katta e‘tibor berilmoqda, 2015 yil 29 -dekabrda «Veterinariya to‘g‘risidagi qonun»ning qabul qilinishi buning yaqqol isbotidir, bu qonun 6 ta bo‘lim, 32 ta moddadan iborat.

Samarqand viloyati Pastarg‘om tumanida veterinariya tadbirlari rejali ravishda olib boriladi. Tuman veterinariya bo‘limida bo‘lim boshlig‘i, uning muovini, vrach epizootolog, vrach terapevt, apteka mudiri, hisobchi va veterinariya uchastkalarida uchastka boshliqlari, vet texniklar faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Tumanda veterinariya laboratoriyasi mavjud bo‘lib, uning serologiya, bakteriologiya va parazitologiya, ximiotoksiko-logiya, virusologiya bo‘limlari

mavjud. Tumanda veterinariya inspektori vazifasini tuman veterinariya bo'lim boshlig'i bajaradi.

Bulardan tashqari bozorlarda qishloq xo'jalik mahsulotlarini vetsanekspertizasi bo'limlari mavjud bo'lib, tuman veterinariya xizmati (bo'yicha) Davlat byudjeti tomonidan, hamda mahalliy byudjetlar hisobiga mablag'lar bilan ta'minlanadi.

Veterinariya tashkilotlari va fermalarda qo'yidagi jurnallar yuritiladi:

1. Kasal hayvonlarni qayd etish jurnali (Shakl № 1-vet).
2. Epizootiyaga qarshi tadbirlarni qayd etish jurnali (shakl № 2-vet)
3. Tuman epizootik holatini qayd etish jurnali (shakl № 3 vet).

Pastdarg'om tuman vetsanekspertiza laboratoriyada esa:

1. Go'sht, baliq, tuxum VSE (shakl № 23-vet)
2. Sut va sut mahsulotlari VSE (shakl № 24-vet).
3. O'simlik ozuqa mahsulotlari VSE (shakl № 25-vet).
4. Asal VSE (shakl № 26-vet)

Veterinariya laboratoriyasida bakteriologik tekshirishlar jurnali (Shakl № 12-vet).

1. Virusologik tekshirishlar jurnali (shakl № 13-vet)
2. Qonni serologik tekshirish jurnali (shakl № 14 –vet).
3. Teri va junni kuydirgi kasalligiga tekshirish jurnali (shakl №7-vet).
4. Hayvonlarni parazitlar kasalliklarga tekshirish jurnali shakl № 18-vet va boshqalar yuritiladi.

Tuman veterinariya bo'limi oyiga 1 marta viloyat veterinariya boshqarmasiga qo'yidagi hisobotlarni topshiradi:

1 shakl. № 1 -vet «hayvonlarni yuqumli kasalliklari to'g'risida hisobot» (oylik, chorakda)

2 shakl. № 2 -vet «hayvonlarni yuqumsiz kasalliklari to'g'risida» hisobot (har yarim yilda bir marta)

3 shakl. №3-vet «Baliq kasalliklari tug'risida xisobot» (yiliga bir marta)

4-shakl. №4-vet «Veterinariya laboratoriyalari ishi to'g'risidagi xisobot (yiliga bir marta)

5-shakl. №5-vet Suyish punktlari va sanitariya ekspertiza laboratoriyalarining ishi to'g'risida xisobot» (yarim yilda bir marta)

“Jo‘ra” fermer xo‘jaligida idoraviy veterinariya xizmati joriy etilgan bo‘lib, tuman veterinariya bo‘limining tarkibiy qismi xisoblanadi. Xo‘jalikda veterinariya xizmati veterinariya vrachi va veterinariya feldsheri tomonidan amalga oshirilib, xo‘jalik ishlarida faoliyat ko‘rsatadi.

Xo‘jalikda 1ta veterinariya vrachi ko‘rsatadi. Bular quyidagilarni amalga oshiradilar:

- Xo‘jalik ma‘muriyati va boshqa mutaxassislari bilan xamkorlikda chorva mollarining sonini ko‘paytirish, mahsulot va xom-ashyo ishlab chiqarish miqdorini oshirish;

- Xo‘jalikda mavjud hayvonlarning doimiy ko‘rikdan o‘tkazish, rejalashtirilgan profilaktik va veterinariya sanitariya tadbirlarini amalga oshirish, kasal mallarni aniqlab ajratish va davolash;

- Xo‘jalikda O‘zbekiston Respublikasi “Veterinariya to‘g‘risida”gi qonunga amal qilish;

- Aholini zooantroponozlardan muxofaza qilish ishlari o‘z vaqtida bajarilib turiladi.

Chorvachilik obyektlari devor bilan uralgan, kirish joylarida Veterinariya sanitariya o‘tkazish punktlari, dezobaryer va dezomatlar o‘rnatilgan. Shuning uchun keyingi 4-5 yilda xo‘jalikda yuqumli kasallik qayd etilmagan.

Tumanda pullik veterinariya hisob-kitoblari ishi o‘z vaqtida olib boriladi. Xususiyl veterinariya xizmatini tashkil etish shakllari va tartibi quyidagicha bo‘ladi:

- Zoovet punktlar
- Kichik korxonalar
- Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar
- Firmalar
- Veterinariya dorixonalari

Xususiyl veterinariya xizmatini tashkil etish uchun quyidagi hujjatlar talab etiladi:

- Tuman yoki shahar hokimi nomiga ariza;
- Tashabbuskor guruhning majlisi bayonidan ko'chirma;
- Guruh a'zolarining ro'yxati;
- Bo'lajak muassasaning nizomi;
- Tuman (shahar) hokimining qarori va ro'yxatga olish;
- Muhr va shtamp yasatish;
- Bankda hisob raqami ochish;
- O'zRDVBB ning «LISENZIYA» sini olish;
- Shartnomalar tuzish va faoliyat ko'rsatish.

V. HAYOT FAOLIYAT HAVFSIZLIGI

Mutaxassislar havfsiz ishlashi uchun mashina va mexanizmlarni tuzilishi, ishlash prinsiplarini yaxshi o'rgangan bo'lish kerak. Qishloq xo'jaligida jarohatlarning 35%ga yaqini transportda ish bajarganda sodir bo'ladi. Elektr toki bilan jarohatlanish jami jarohatlarning 0,5-1% ini tashkil qiladi. Xo'jalikda ishlaydigan har bir xodim bajaradigan vazifasidan qat'iy nazar mehnat muxofazasi qoidalariga rioya qilish shart. Xo'jalik raxbari tomonidan ishchilarga instruktaj beriladi, Chunki xo'jalikdagi ishchi xodimlar texnika, elektr toki va xayvonlar bilan ishlaydilar.

Hayot faoliyat havfsizligi ish joylarida inson salomatligi va ish qobiliyatini ta'minlovchi barcha shart sharoitlarni yaratib berishdan iborat. Bu sharoitlar mehnat qonunlari kodeksi tomonidan kafolatlanadi.

Hayot faoliyat havfsizligining vazifalaridan biri ishlab chiqarishdagi mehnat qiluvchilarni, mehnat havfsizligini ta'minlashdan iborat. Xozirgi kunda jamiyatimizda fan texnika rivoji zamonaviy yutuqlari natijasida qishloq xo'jaligida ishlatiladigan zamonaviy texnikalar paydo bo'la boshladi. Bu texnikalarni boshqarishda havfsizlik koidalariga qat'iy rioya qilish lozim.

“Jo‘ra” fermer xo‘jaligida yong‘inga qarshi barcha otar va ovulxonalari, oziqa bazasi tarafida basseynda suv va qum saqlanadi. Xo‘jalikda yong‘inga qarshi havfsizlik choralari bor mineral ug‘itlar, zaharli ximikatlar, veterinariya preparatlari alohida joylarda qulflanib saqlanadi.

Qoramolchilik fermasi devor bilan o‘ralgan bo‘lib, fermaga kirishda shilagbaumlar, dezobaryer tusiqlar o‘rnatilgan, molboqar va boshqa xizmatchilar maxsus kiyim-kechaklar (xalat, rezina etik) va issiq kiyimlar bilan tuliq ta‘minlangan. Xo‘jalikda barcha ishlatiladigan elektr jihozlari himoya shitlari bilan o‘ralgan bo‘lib, insonlar xayoti uchun havfsiz. Veterinariya xodimlari ham xayvonlar bilan ishlaganda, texnika havfsizligi qoidalariga rioya qilib, maxsus fiksasiya qilish asboblariidan foydalanilgan holda veterinariya tadbirlarini o‘tkazadi.

VI. FUQAROLAR MUDOFASI

O‘zbekiston Respublikasi mehnatni muhofaza qilish konunining 17 moddasiga asosan sog‘likni saqlash tashkiliy idoralari tomonidan belgilangan tartibga muvofiq mehnat shartnomalarini imzolashda vaqti-vaqti bilan tibbiy ko‘rikdan o‘tish tashkil etiladi, bundan tashqari ish tarkibida bir qancha himoya vositalari, kiyim-kechaklaridan foydalaniladi.

Zaharli preparatlar bilan ishlaganda himoya ko‘zoynagi, resprator, qo‘lga rezina qulqoplar kiyiladi. Shu qatorda zaharli preparatlar bilan ishlagandan so‘ng, shu qolgan preparatlarni chuqurga kumib, zararsizlantirib, ish joylari tozalab qo‘yiladi.

Ishlab chiqarish sharoitlarida mutaxassislar va molboqarlar nurlanish kasalligi to‘g‘risida ma‘lumotga ega bo‘lishlari lozim. Nurlanish kasalligi deb radioaktiv izotop ta‘siri natijasida paydo bo‘ladigan kasallikga aytiladi.

1.Nurlanish kasalligi - tashqi va ichki nurlanishning maydoniga qarab, umumiy va mahalliy bo‘ladi. Kechishiga qarab - o‘tkir va surunkali kechadi. A) 1000 rentgen miqdorida nurlanish natijasida kasallik bir necha soatdan 2 sutkagacha davom etadi. Klinik belgilarini aniqlash, tekshirish imkoniyati

bo'lmisligi ham mumkin. Chunki ba'zida hayvonlar nurlanish vaqtida halok bo'ladi.

Nurlanish kasalligida asosiy belgilar qo'zg'alish holati, tana haroratining ko'tarilishi, ensefalit va ensefalomiyelit kasalligiga o'xshash belgilar paydo bo'lishi, keyinchalik, umumiy holsizlanish, falaj, yarim falaj yuz beradi. Nafas va yurak urishi soni keskin tezlashadi. Qon bosimi oshadi, keyinchalik qon tomirlar torayadi va shu sababli qon quyulishlar paydo bo'ladi. Arteriya qon bosimi keskin pasayadi va vena qon bosimi bilan tenglashadi. Kasallikning bu tarzda kechishida hayvonlar 100% halok bo'ladi. Shu sababli hayvonlar imkoniyati boricha tezroq go'shtga so'yilishi shart.

Nurlanish kasalligida davolashning samarali usuli ishlab chiqarilmagan. Shuning uchun davolash siptomatik usulda o'tkaziladi. Davolashdan oldin hayvonning nurlanish darajasi aniqlanadi, 3- va 4- daraja va undan yuqori nurlanishda davolanmaydi va uch kun o'tmasdan majburiy so'yiladi. 1-2 darajali nurlanishlar davolanadi.

1. Ichki nurlanish natijasida kasallik rivojlanishi hisobga olinadi. Vaqt ko'p o'tmagan bo'lsa (90 minut atrofida) oshqozon yuviladi (ot va qoramollarda), it va cho'chqalarda qusish reflekti chaqiriladi. Tashqi nurlanishda veterinariya abrotbotkasi - zararsizlantirish va yaralar davolanadi.

2. Radiaktiv izotoplarni ta'sirini pasaytirish uchun surgi dorilar qo'llaniladi. Qoramollarga kalsiy, kaliy tuzlari, alkaloidlar, cho'chqalarda kalamel q'llaniladi.

3. Radiaktiv izotoplarni qonda ajratish uchun, diuretiklar - siydik haydovchi vositalar qo'llaniladi (diuriten, merkuzal, diakarb v.h.k).

VII. XULOSALAR

1. Sigirning yo'ldoshni ushlanib qolishi bilan kasallanishida ratsionlarni takomillashmaganligi, sigirlar organizmining to'yimli moddalar, makro- va mikroelementlarga nisbatan ehtiyojlarini to'liq qondirmasligi, masionni yetarli bo'lmasligi, molxonalarda sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilinmasligi, sigirlarni o'z vaqtida tug'ruqxonalarga o'tkazilmasligi, tug'ishda yetarlicha yordam ko'rsatilmasligi, ularni yo'ldoshni ushlanib qolishidan keyingi infeksiyalar bilan kasallanishi asosiy etiologik omillar hisoblanadi.

2. Sigirlarda yo'ldoshni ushlanib qolishi oqibatidagi endometritlar (kataral-yiringli endometritlar) tana haroratini o'rtacha $0,5-1^{\circ}\text{C}$, yurak urishi sonini bir daqiqada 10-15 martagacha ortishi, umumiy holsizlanish, ishtahaning o'zgarishi, oshqozon oldi bo'limlarining gipotoniyasi, shilliq pardalarning oqarishi (anemiya), qindan kataral-yiringli ekssudat oqishi kabi belgilar kuzatilishi bilan xarakterlanadi.

3. Sigirlarning yo'ldoshni ushlanib qolishi oqibatidagi endometritlari qondagi eritrositlar soni, gemoglobin, umumiy oqsil miqdorlarini kamayishi, leykositlar sonini ortishi, leykoformulada limfositlar, eozinofillar foizining ortishi va tayoqchayadroli, segmentyadroli neytrofillar va yosh neytrofillar foizining kamayishi hisobiga yadroni chapga siljishi bilan kechadi.

4. Sigirlarda yo'ldoshni ushlanib qolishi va uning oqibatida kuzatiladigan endometritlarni davolashda qin va bachadon buyinchasi tuzli-sodali eritma (10 g osh tuzi, 20 g natriy gidrokarbonat, 1 l qaynatilgan suv) bilan kuniga bir marta, jami 3 marta yuvish, oksitosinning 1%-li eritmasidan 8 ml (60-80 TB) teri ostiga yuborish, metranidazol antibiotigidan 100 ml kuniga bir marta vena qon tomiriga yuborish, "Dipen" antibiotigidan bir marta 20 ml muskul orasiga yuborish sigirlarda klinik statusni va qonning morfofiokimyoviy ko'rsatkichlarining yaxshilanishi, sigirlar sut mahsuldorligining 38,5 foizga, urug'lanish ko'rsatkichini 40 foizga yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu preparatlarni qo'llashning iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lib, bir bosh sigir hisobiga 39058 so'mni, 1 so'm hisobiga xarajatlar qoplami 5,04 so'mni tashkil etadi.

Bachadonda ushlanib qolgan yo‘ldoshni operativ usulda ajratib olishda bachadonga mikroorganizmlarning tushishi ehtimoli ko‘payadi, uning asorati sifatida endometritlar, bachadonning subinvalyusiyasi va bepustlik kuzatilishi mumkin. Shuning uchun ushlanib qolgan homila yo‘ldoshini ajratishda konservativ usullardan foydalanish va bu usullar samara bermaganda yo‘ldoshni qulda ajratib olinadi.

VIII. AMALIY TAVSIYALAR

1. Sigirda yo‘ldoshni ushlanib qolishi va uning oqibatida kuzatiladigan endometritlarni o‘z vaqtida aniqlash uchun hayvonlarda akusher-ginekologik dispanser tekshirishlar o‘tkazish va bunda hayvonlarni saqlash, hamda oziqlantirish sharoitlari, poda sindromatikasini tahlil qilish, klinik tekshirishlar va qondagi hayotiy muhim moddalar miqdorini aniqlash talab etiladi.

2. Sigirlarda yo‘ldoshni ushlanib qolishi va uning oqibatida kuzatiladigan endometritlarni davolashda qin va bachadon buyinchasi tuzli-sodali eritma (10 g osh tuzi, 20 g natriy gidrokarbonat, 1 l qaynatilgan suv) bilan kuniga bir marta, jami 3 marta yuvish, oksitosinning 1%-li eritmasidan 8 ml (60-80 TB) teri ostiga yuborish, metranidazol antibiotigidan 100 ml kuniga bir marta vena qon tomiriga yuborish, “Dipen” antibiotigidan bir marta 20 ml muskul orasiga yuborish tavsiya etiladi.

IX. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. I.A.Karimov «Qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti tukin qayot manbai» Toshkent 1997 yil.
2. I.A.Karimov «Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy isloqatlarni chuqurlashtirish dasturi» 1998-2000 y.
3. I.A.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. Toshkent, 2000 y.
4. I.A.Karimov. Shaxsiy yordamchi dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirishni rag‘batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo‘shimcha chora

tadbirlar to'g'risidagi PQ – 842 qarori, 2008 yil, 21 aprel – Xalq so'zi gazetasi.

5. I.A.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent, 2009.
6. Abduraxmonov T., R.B.Davlatov. Veterinariya ishini tashkil etish va uning iqtisodi. Samarqand 2004.
7. Ata-Kurbanov Sh.B. "Qishloq xo'jalik hayvonlarning bo'g'ozlik taqvimi". Elxolding EL, 2004.
8. Байматов В.Н., Адамушкин В.Е., Ханнанова А.Ф. Изменение клинико-биохимических показателей у коров при йодной недостаточности. Ж-л. Вет. №8. 2006. ст 45-47.
9. Варганов А.И., Тетерев И.И., Филатов А.В. Эффективность [Биогеля-10](#) при лечении эндометритов у коров // Итоги и перспективы научных исследований по патологии животных и разработке средств и методов терапии и профилактики: - Воронеж, 1995.- С.205-206.
10. Григорьева Т.Е. Лечение и профилактика эндометритов у коров. Росагропромиздат, Москва 1988.
11. Коба И.С. Усовершенствование комплексной фармакотерапии при остром послеродовом эндометрите бактериально-микозной этиологии. Автореф. Дисс...докт. вет. наук. 2009. С-28-33.
12. Кондрахин И.П., Левченко В.И. Диагностика и терапия внутренних болезней животных. М.: Изд. ООО «Аквариум-Принт», 2005. С.-652-664.
13. Лимаренко А.А. Усовершенствование этиотропной терапии при послеродовом эндометрите у коров" Ставрополь 1999.
14. Студенцов А.П., Шипилов В.С., Никитин В.Я., Миролубов М.Г., Субботин Л.Г., Преображенский О.Н., Храмсов В.В. "Ветеринарное акушерство, гинекология и биотехника размножения". Москва "Колос", 7-е издание, переработанное и дополненное, 1999.
15. Субботин В.М., С.Г.Субботина, И.Д.Александров "современные лекарственные средства в ветеринарии" феникс Ростов-на-дону 2000.

- 16.Терешенков А.С. Профилактика и лечение акушерско- гинекологических заболеваний коров” Ураджай. Минск, 1999.
- 17.Тетерев И.И., Тимошенко Т.А., Медведев С.П., Бадин В.А. Применение препаратов прополиса в животноводстве и ветеринарии// С-х наука Северо-Востока Европейской части России: Сб. научн. тр. НИИСХ Северо-Востока им. Н.В.Рудниского.- Киров,1995.- Т.3.С.41-47.
- 18.Топалов Ф.Г. Основы генетики и разведения домашнего скота. 2004.
- 19.Чомаев А.М., Чернышева М.Н., Голдина А.А. Молочная продуктивность и сроки осеменения коров. Ж. Зоотехния, №6, 2003, с.30.
- 20.Шипилов В.С., Зверева Г.В., Родин И.И., Никитин В.Я. Практикум по акушерству, гинекологии и искусственному осеменению с/х. М.: ВО «Агропромиздат», 1998.
- 21.Eshburiyev B.M. Hayvonlarning endemik mikroelementozlari. Monografiya. «N.Doba» XT. Samarqand, 2009.
- 22.Norboyev Q.N. va b. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari. Darslik, Toshkent, 2007.
- 23.<http://in1.com.ua/article/2926/>
- 24.<http://vak.ed.gov.ru/common/img/uploaded/files/vak/announcements/Veterinar/2009/15-06/Koba I.S.doc>.
- 25.[www. Ziyonet](http://www.Ziyonet)
- 26.[http// www//infect// ru](http://www//infect// ru).
- 27.Zooveterinariya a- mail.ru
- 28.<http://veterinar.selhozizdat.ru/avet/>
- 29.<http://bd.patent.su/2372000-2372999/pat/servlet/servlet5ae1.html>

_____Ibragimov Olim

